

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

Qo‘l yozma huquqida
UDK 811.512.154(076)

ABDULLAYEV DILSHODBEK YULDASHALI O‘G‘LINING

“KASB-HUNAR KOLLEJI O‘QUVCHILARIDA KASBGA
QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISHNING AKSIOLOGIK
IMKONIYATLAR TIZIMI”

MAVZUSIDAGI

5A110901 – Pedagogika nazaryasi va tarixi (yo`nalishlar bo`yicha)
mutaxassisligi bo`yicha
Magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan

DISSERTATSIYA

NAMANGAN 2017

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA KAFEDRASI

**“DAK ga tavsiya etaman”
Magistratura bo‘limi boshlig‘i**

**_____ I. Ikromov
“ ” _____ 2017 yil**

**“DAK ga tavsiya etaman”
kafedra mudiri**

**_____ p.f.n., dots.M.Nishonov
“ ” _____ 2017 yil**

ABDULLAYEV DILSHODBEK YULDASHALI O‘G‘LINING

**“KASB-HUNAR KOLLEJI O‘QUVCHILARIDA KASBGA
QIZIQISHNI SHAKLLANTIRISHNING AKSIOLOGIK
IMKONIYATLAR TIZIMI”
MAVZUSIDAGI**

**5A110901 – Pedagogika nazaryasi va tarixi (yo`nalishlar bo`yicha)
mutaxassisligi bo`yicha
Magistr akademik darajasini olish uchun taqdim etilgan**

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

p.f.n., dots. X.Raxmatova

NAMANGAN 2017

MUNDARIJA

Kirish.....	3-13
I bob. Kasb-hunar egallash va mehnat qilishning ahamiyati haqida nazariy asoslar	
1.1. Avestoda kasb-hunar egallash va mehnat qilish borasidagi qarashlar.....	14-21
1.2. Xalq pedagogikasida kasb-hunar egallash va mehnat qilishdagi o'gitlar – bebaho qadriyat ekanligini asoslash.....	22-25
1.3. Kasb-hunar kolleji o'quvchilari mehnatsevarlik va kasbga yo'naltirish borasida qanday qadriyatlarni bilish darajalari.....	26-34
Birinchi bob yzasidan xulosalar.....	34-35
II bob. Mehnatsevarlik va kasb-hunar egallashga oid tushuntirish ishlarini olib borishning pedagogik shart-sharoitlari.	
2.1 Tarbiya berish orqali o'quvchilarning ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etish.....	36-34
2.2.O'quvchilarning mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda hamkorlikda ish olib borishni ahamiyati.....	45-51
2.3. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini kasbiy yo`nalishlari orqali mehnatga ongli munosabatini shakllantirish.....	52-61
Ikkinchi bob yzasidan xulosalar.....	61-62
III-bob. Tajriba –sinov ishlarini tashkil qilish va o'tkazish.....	63-76
Umumiy xulosalar va tavsiyalar.....	77-80
Foydalanilgan adabiyotlar.....	81-83

Albatta, har qaysi xalq yoki millatning

*ma'naviyatini uning tarixi, o'ziga xos
urf-odat va an'analari, hayotiy
qadriyatlaridan ayri holda tasavvur
etib bo'lmaydi. Bu borada, tabiiyki,
ma'naviy meros, madaniy boyliklar,
ko'hna tarixiy yodgorliklar eng muhim
omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.*

Islom KARIMOV

Mavzuning dolzarbligi. Buyuk ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan yuksak madaniyat va ilmiy kashfiyotlar jamiyatimizning oliy qadriyati bo'lgan – insonning dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov keksalarning hayot darajasi va sifatini yanada yaxshilash, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash ko'lamini kengaytirish, yoshi ulug' insonlar, ayniqsa, 1941 — 1945 yillardagi urush va mehnat fronti faxriylariga ijtimoiy, pensiya ta'minoti va tibbiy xizmat ko'rsatishni takomillashtirish, oila va jamiyatda, yoshlarni o'zbek xalqining ko'p asrlik qadriyat va an'analari ruhida tarbiyalashda keksalarning o'rni nihoyatda muhim ahamiyat kasb etishi maqsadida, 2015 yilning «Keksalarni e'zozlash yili» deb e'lon qilinishi bejiz emas.

O'zbek xalqining qadimiy kasbi hunarmandchilik va dehqonchilik bo'lgan. O'zbek tuprog'ida turli kasb egalari alohida-alohida mahalla bo'lib yashashardi. Bunda ham, albatta, xikmat bor. Ma'lumki o'zbek tuprog'idagi kulol hind diyorida elga tanilgan mashhur kulolni “ustoz” deb atagan. O'z kasbining mashhur ustasiga ming-ming chaqirim yo'l bosib, “ustoz” o'gitidan bahramand bo'lish uchun borishga hech nima to'sqinlik qila olmagan.

Xorazm, Buxoro, Farg'ona, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Andijon, Qo'qon, Namangan va Toshkent diyori azaldan o'zining xunarmandlari bilan ham dong'i ketgan. Xunarmandchilikni o'nlab sohalarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar xorijga ham chiqarilgan. Jumladan: zargarlik, kashtachilik, kulolchilik, naqqoshlik, temirchilik, misgarlik, qoshiqchilik, tikuvchilik, to'quvchilik,

bo'yoqchilik, beshikchilik, egarchilik, oshpazchilik, qandolatchilik va hokazolar qatorida chinni va billur idishlari, konservalash va boshqa yangi sohalar bilan hunarmandchiligimiz boyidi . Lekin, ijtimoiy taraqqiyot taqozosi bilan ayrim hunarmandchilik sohaları inqirozga uchrab, ayrimlari yo'q bo'lish arafasida tushib qolgan edi. Shukurki, mustaqillikka erishgandan keyin yana ota-bobolarimiz, momo-onalarimiz kasbu-korini egallashga yanada ko'proq e'tibor qaratilib, "2015 Kekcalarni e'zozlash yili" deb nomlanishi ham bejiz emas. **Ayniqsa 2017 yilni "Xalq bilan muloqat va inson manfatlari" deb nomlanishi ham xalqni sog'lom muhit tarzida yashashga qaratilgan imkoniyatlardir.**

Kishilar dunyoqarashini shaqllantirishda, ularda tabiat, jamiat, insonning kelib chiqishi, rivojlanishi haqida tasavvurlar hosil qilishda Markaziy Osiyo mutafakkirlari tomonidan yaratilgan ilmiy falsafiy meros bitmas-tuganmas boylik xazinasini hisoblanadi. Undan unumli va samarali foydalanish hozirgi vaqtda mustaqil jamiyatimizni oldida turgan dolzarb vazifadir.

O'zlikni anglash insonning kamol topishidagi muhim jarayon bo'lib, ma'naviy-axloqiy tarbiyaning bosh vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki ma'naviy-axloqiy jihatdan yetuk kishigina o'zligini anglab yetadi. O'zligini anglagan inson har tomonlama rivojlangan, ongi yuksalgan, insoniy burchini teran anglab etgan bo'ladi. Uning bunday yuksaklikka ko'tarilishida turli omillar ishtirok etadi va u yoki bu darajada o'z ta'sirini qoldiradi. Ana shunday omillardan biri milliy qadriyatlardir.

Qadriyat nima? U muayyan xalq turmush tarzi, ijtimoiy taraqqiyotida asrlar davomida shakllanadi va sayqal topadi. Mana shunday takomil topgan oliy qadriyatlar millatning o'ziga xosligini, mentalitetini namoyon etadi. Ko'p asrlik tarixga ega o'zbek xalqining shunday qadriyatlari borki, u boshqa biror halqnikiga, o'xshamaydi. Mana shu qadriyatlar " ... necha asrlarki bizni ne-ne balo-qazolardan, to'fon va bo'ronlardan sog'-omon asrab kelmoqda. Har qanday og'ir va murakkab sharoitda ham ota-bobolarimiz o'zligini yo'qotmasdan, ma'naviy hayot mezonlari, odob-axloq qoidalariga amal qilib, komillik sari intilib yashagani bugun

barchamizga ibrat bo‘lib, kuch-quvvat bag‘ishlab kelmoqda” .

Urf-odat, rasm-rusm, marosimlar, bayramlar xalqimiz hayotida nihoyatda ko‘p va xilma-xildir. Ularning shakllanishi, taraqqiyot darajasi ham o‘ziga xos tarixiy yo‘lni bosib o‘tgan. Bu urf-odat va rasm-rusmlarining boshqa xalqlardagi xuddi shunday urf-odat hamda rasm-rusmlar bilan mushtarak tomonlari ham, keskin farq qilib turadigan tomonlari ham bor. Qadriyat muayyan xalq va millatga xos xususiyatlarni o‘zida to‘la namoyon etadigan, ko‘p asrlik tarixiy taraqqiyot natijasida milliy o‘ziga xoslikni mujassam etgan, millatning mentalitetini belgilab beradigan muhim omil bo‘lgan ma’naviy tushunchadir. Ma’naviyat tushunchasi singari qadriyat tushunchasi ham keng bo‘lib, uni har kim o‘z nuqtai nazaridan kelib chiqqan holda turlicha izohlashi, ta’rif berishi mumkin. Lekin barcha holatlarda qadriyat o‘zida ezgu niyatlar, maqsadlar va intilishlarni namoyon etadigan millatning ma’naviy etukligini ko‘rsatib turadigan mezonlardan biri sanaladi. Insoniyat tamadduni taraqqiyot bosqichlari tajribalarini o‘zida mujassam etgan, eng ezgu tuyg‘ularga yo‘g‘rilgan va komillik sari da’vat etuvchi ma’naviy-ruhiy tushunchalar umuminsoniy qadriyatlar darajasiga ko‘tariladi. “Mana shu hayotda yashashimiz, tinch va osuda hayotimiz, bayramlarimiz, udumlarimiz, mehrliligimiz, folklorimiz, o‘yinlarimizning barchasi ezgu va azaliy qadriyatlardir”, deyiladi. Darhaqiqat, shunday. Ularda bizning o‘zligimiz, xalqimizga xos eng muhim xususiyatlar bo‘rtib turadi. Bu qadriyatlarni asrab-avaylashimiz, rivojlantirishimiz, yangi ijtimoiy mazmun bilan boyitib borishimiz, kelajak avlodlarga etkazishimiz zarur. Prezidentimiz Sh.Mirziyoev “Navro‘z” bayramida ana shunday qadriyatlarimiz haqida fikr yuritar ekanlar, umumxalq milliy bayramimiz” Navro‘zga” alohida to‘xtalib o‘tdilar: “ ... yangilanish va ezgulik tamoyili bo‘lgan” Navro‘z” falsafasi xalqimizga mansub odamiylik, mehr-oqibat, muruvvat va himmat kabi yuksak xususiyatlardan oziqlanib kelgani, ajdodlarimiz asrlar davomida qanday buyuk umuminsoniy g‘oyalardan bahramand bo‘lib, ma’naviy kamol topganining yana bir tasdig‘idir ... ”dedilar.

O‘z milliy qadriyatlarning mazmun-mohiyatini teran anglagan, uni e‘zozlagan, asrab-avaylagan, undan faxrlana oladigan kishi chinakam xalqparvar,

millatparvar sanaladi. Ana shunday kishilarni tarbiyalab voyaga etkazish ta'lim-tarbiya tizimining, barcha ziyolilarning muqaddas burchidir. Bu borada mamlakatimizda keng qamrovli faoliyat olib borilmoqda va o'tgan yillar ichida ma'naviy-ma'rifiy ishlar samarali yaqqol ko'zga tashlanmoqda. Mustaqillik yillarida milliy qadriyatlarimiz tiklangani, ulug' ajdodlarimizning boy ma'naviy merosi xalqimizga qaytarilgani millatimizning ma'naviy yuksalishida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ayniqsa, mustabid tuzum davrida toptalgan diniy qadriyatlarimiz taqiq va taziyoqlardan xalos etildi. Diniy rasm-rusmlar, bayram va marosimlar deyarli unitilayotgan edi. Masjidlar omborxonalariga aylantirilgandi, madrasalar qarovsiz qolgandi. Diniy marosimlar va bayramlar tor doirada yashirin ravishda o'tkazilardi.

Holbuki, muqaddas dinimiz asrlar davomida vatandoshlarimizni mehroqibatli bo'lish, insof va adolat, yaxshilik, ezgulik tuyg'ularini qadrlash ruhida tarbiyalab keldi. Bu yuksak insoniy fazilatlar xalqimizning qon-qoniga singib ketganki, bular milliy mentalitetimizning asosini tashkil etadi. Ramazon va Qurbon hayitlarini umumxalq bayrami sifatida nishonlash an'anaga aylandi. Bu kunlar mamlakatimizda dam olish kuni deb belgilab qo'yilgan. Diniy rasm-rusmlar, bayram va marosimlar muntazam o'tkazilib, ular orqali yuksak axloqiy fazilatlar targ'ib etilmoqda. Mana shu tadbirlar ham milliy o'zlikni anglashga xizmat qiladi.

Vatanparvarlik, millatparvarlik, Vatanga, yurtga fidoyilik tuyg'ulari o'zlikni anglab etgan taqdirdagina namoyon bo'ladi. Umuman olganda, xalqimizning uzoq asrlik tarixi davomida to'plangan ma'naviy boyliklari, shakllangan urf-odatlar, rasm-rusmlari, marosimlari, barcha qadriyatlari mohiyatini anglab etish, ularni rivojlantirishga intilish o'zlikni anglashga olib keladi. Binobarin, o'zlikni anglash insonning inson bo'lishi, komillika intilish jarayonida inson sifatidagi ijtimoiy-ma'naviy mas'uliyatni his etish va ana shu mas'uliyatni o'z hayotiy faoliyati davomida to'la-to'kis namoyon eta olishdir. O'zlikni anglashda dinning ahamiyati katta. Islom dini shu jihatdan juda zo'r tarbiyaviy-ma'rifiy ahamiyatga ega. Bizning milliy qadriyatlarimiz ana shu diniy aqidalar, talab va qoidalar asosida shakllangan, rivojlangan. Qadriyatlar darajasiga ko'tarilgan milliy an'analarimiz

bugungi kunda yoshlarimizni milliy o'zlikni anglash ruhida tarbiyalashda cheksiz imkoniyatlarga, beqiyos tarbiyaviy ta'sir kuchiga ega.

Qadriyatlarni yoshlar ongiga singdirishda oila va maktab, mahallalarning o'rni ham katta. Mahallada o'zaro mehr-oqibatli bo'lish, bir-birining qadriga etish, o'zaro yordam tuyg'ulari tarkib topadi va odamlarni jipslashtiradi. Turli hil marosimlar, bayramlar, tabiat hodisalari bilan bog'liq tadbirlar mahallalarda guruh-guruh bo'lib o'tkazilgan, xalq o'z shodligini hamisha qo'ni-qo'shnisi, mahalladoshi bilan birgalikda baham ko'rgan.

Betgachoparlik, ikkiyuzlamachilik, qat'iyatsizlik do'stga xiyonat, subutsizlik xalqimiz orasida xamisha qattiq qoralangan. Afsuski, bunday illatlar xali-xanuz odamlarimiz orasida uchrab turadi. Ba'zi yoshlarimiz tabiatida ana shunday illatlar paydo bo'layotganligi bizni tashvishga soladi. Bu illatlardan xalos bo'lish uchun barcha tarbiyaviy vositalarni ishga solishimiz, yoshlarimizning xar tomonlama etuk, o'zligini, o'z qadr-qimmatini chuqur anglagan kishilar bo'lib etishishlari xaqida qayg'urishimiz zarur. Bu ulkan va ma'suliyatli xamda sharafli vazifani ado etishimizda milliy qadriyatlarimizning ahamiyati beqiyos ekanligini yana bir marta takrorlab o'tmoqchimiz.

- Shaxsni muhim sifatleri sifatida yuksak axloqiy qadriyatlar (yaxshilik, mehnatsevarlik, vijdon, sevgi, qadr-qimmat, fuqorolik va boshqalar)ni aks ettirish.

- Milliy ma'naviyat va ma'rifatning birdan-bir maqsadi aholiga bilim berish, ma'naviy qarashini yuksaltirish, ichki ruhiy kechinmalarini boyitish, ular olgan ana shu bilimlarini hayotda qo'llay olishga o'rgatish.

- Odamlarda tegishli ko'nikma hosil qildirish, ijobiy ijtimoiy fazilatlarni shakllantirish va rivojlantirish.

- Sadoqatlilik, vafodorlik, odob va axloqiylik, mehnatsevarlik, mehmonnavozlik, iymon va e'tiqod tuyg'ularini yosh avlod ongiga singdirish.

- Ma'naviy tarbiya vositalari bo'lgan ibrat, iroda va mehr-muruvvatdan unumli foydalanish.

insonparvarlik, do'stlik, g'amxo'rlik, jonkuyarlik, samimiylik, kuyunchaklik, odamiylik, bolajonlik, iymondorlik, fidokorlik, xushmuomalalik,

baodoblilik, iltifotlilik, ochiq yuzlik, kechirimlilik, mehmondo'st, hush ahloqlik, xamjihatlik va boshqa ijobiy fazilatlar hosil bo'ladi. Inson manfaatlari, xalq baxt-saodati va farovon hayotini ta'minlash – doim **yurtboshimiz va davlatimizning diqqat markazida bo'lib kelmoqda.**

Prezidentimiz tomonidan yoshlarga bo'lgan e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Bu e'tiborlarning yoshlar qanday qabul qilib, oqilona foydalanishlarini hayotda o'z o'rni va kasb-hunariga ega bo'lishini tushuntirish biz pedagoglarga ko'p jihatdan bog'liqdir.

Qadimdan ma'lumki, kulol ham, temirchi ham, naqqosh ham, xullas barcha kasb egalari iloji boricha zaruriyatiga ko'ra o'z kasbini o'rgatishga intilgan. Qadimda yunonlar ota kasbini egallay olmagan farzandlarni xaloyiq oldiga olib chiqib, izza qilishar ekanlar.

Shu boisdan bo'lsa kerakki, ulug' bobomiz Alisher Navoiy yoshlarni ilm-hunar egasi bo'lish, halol mehnat qilishga da'vat etadi:

Ilm kasbni qildi to joni bor,

Hunar o'rgandi oncha ki imkoni bor.

Navoiyning bu misralaridan ko'rinib turibdiki, ul oliyzot e'zozlagan ilm va hunar halol mehnat bilan uyg'unlashib insonga baxt va sharaf keltiradi, odamlar orasida uning obro' e'tiborini oshiradi.

“Bir yigitga qirq hunar ham oz”, “Hunar-hunardan unar” degan sermazmun xalq naqllari borki, bular asrlar osha taraqqiyot yo'lida olib borilgan mehnatning natijasida vujudga kelgan.

hunarmandchilik sohalari inqirozga uchrab, ayrimlari yo'q bo'lish arafasida tushib qolgan edi. Shukurki, mustaqillikka erishgandan keyin yana otabobolarimiz, momo-onalarimiz kasbu-korini egallashga yanada ko'proq e'tibor qaratilib, “2015 Keksalarni e'zozlash yili” deb nomlanishi ham bejiz emas.

Shu sababli yoshlarda mehnat tarbiyasi va ta'limning asosiy maqsadi o'quvchilarni ilm-fan asoslari orqali muntazam bilimlar bilan puxta qurollantirish, ularda mehnatga va qadimiy hunarmandchilik kasbiga muhabbat, kasb-hunar ahliga hurmat tuyg'usini singdirish, ularni hozirgi zamon ishlab chiqarishining

ilmiy-amaliy asoslari va eng muhim kasblar bilan tanishtirishda va tushuntirishda **o'qituvchidan mahorat** talab qilinadi¹.

Tabiiyki, o'quvchilarda mehnat va kasb-hunarga muhabbat hissi o'z-o'zidan vujudga kelmaydi. Ularda bunday xislat va qiziqishni asta-sekin oilada ota-onaning shaxsan namuna ko'rsatishi, keyinchalik maktabda o'qituvchilar tomonidan o'tkaziladigan mehnat ta'limi darslari, darsdan tashqari turli tadbirlarda va to'garak mashg'ulotlarida jahon xalqlarining, shu jumladan, SHarq xalqlarining asrlar davomida ardoqlanib kelayotgan mehnatsevarlik an'analari va kasb-hunar to'g'risida kengroq tushuncha berish orqali tarkib toptirish mumkin. Zero, o'quvchi yoshlarimizga bizning hozirgi hayotimizga etib kelgunga qadar ajdod-avlodlarimiz o'z tarixida juda ko'p mashqatlarni boshidan kechirganligini, mashaqqatli mehnat qilganligini va hozirgi kunda mehnat qilish uchun kasb-hunar egallash uchun shart-sharoitlar yaratilganligini o'qituvchi sa'nat-mahoratini ishga solib o'quvchilarga tushuntirmog'i lozim. Bunday tushuntirish, uqtirish, turli-xil qiziqarli tadbirlar orqali yoshlarni kelajakda mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash uchun xizmat qiladi. Shuning uchun magistrlik ishimizni” **Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida kasbga qiziqishini shakllantirishning aksiologik imkoniyatlar tizimi.** ” deb nomladik.

Tadqiqotning ob'ekti. Kasb-hunar kolleji o'quvchilari misolida.

Tadqiqotning predmeti. Mazkur tadqiqotning predmeti o'quvchilarning mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashni tashkil etish mazmuni, shakli, usul va vositalari.

Tadqiqotning maqsadi: o'quvchilarda mehnat qilishga ongli munosabatni va bilim ko'nikmalarni shakllantirishdir. Mazkur maqsadga erishish yo'lida quyidagi **vazifalarni** ijobiy xal etish maqsadga muvofiq deb bildik.

Yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli soxalarida faoliyat yuritishga tayyorlash uchun tadqiqotning asosiy vazifalarini quyidagilardan iborat qilib belgiladik:

¹ Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz Vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi. “Ma'rifat” gazetasi. 2011 yil, № 7. 3-b.

- Mavzuga oid adabiyotlarni eg'ish va ularni tahlil qilish;
- tadqiqot muammosi bo'yicha ilmiy nazariy materiallarni o'rganish va ularni tartibga keltirish, umumlashtirish;
- o'quvchilarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash jarayonida vujudga keluvchi muammolarni aniqlashga yordam beruvchi anketalar va testlarni ishlab chiqish, uni amaliyotda sinab ko'rish;
- yaratilgan eksperiment texnologiyasini amaliyotda qo'llash, olingan natijalarni ham sifat, ham miqdor jihatdan tahlil qilish va sharhlash;
- tadqiqotning materiallariga tayangan holda tarkib toptiruvchi tajribalar uchun dastur ishlab chiqish va uni amaliy jihatdan qo'llash;

tajribani natijalariga asoslanib, o'quvchilarga amaliy faoliyat uchun zaruriy uslubiy tavsiyalar va ko'rsatmalarni berishdan iborat.

Mavzu bo'yicha adabiyotlar sharxi-tahlili.. Biz tadqiqot olib borayotgan ushbu ish yuzasidan J.Ramizovning "Umumtexnika predmetlarini o'qitish va mehnat ta'limi metodikasi", D.Txorjevskiy tahriri ostida "Mehnat ta'limi metodikasi", K.Davlatov va boshqalar "Mehnat ta'limi va kasb ta'limi nazariyasi va metodikasi", O'.Tolipov va boshqalar "Mehnat va kasb ta'limida o'qitishning faol usullaridan foydalanish", I.Karimov "Mehnat ta'limi o'qitish texnologiyalari", S.Hasanov "Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida", A.Abdullaev "Ma'naviyat va iqtisodiy tafakkur" O.Musurmonova "Oila ma'naviyati-milliy g'urur", A.Azimov "Mehnat ijtimoiy zulmga qarshi yo'ldir" va boshqa shu kabi ishlar mavjud bo'lib, bizning ishimizda ularning ishidan farqli o'laroq o'quvchilarning mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda qadriyatlar tizimidan foydalanib pedagog mahorati masalasi keng tadqiq etilgan.

Tadqiqotning ilmiy farazlari quyidagicha: Agar biz pedagogik aksiologiya fanidagi qadriyatlar tizimidan foydalanib tushuntirish ishlarini olib borsak o'quvchilarda quydagi bilim,ko'nikma,malaka shakllanib boradi;

- o'quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy axamiyatining tushunilishi;
- ular ongli va ixtiyoriy ravishda mehnat qilishlari;
- ularda mehnat qilmay hayot kechiruvchilarga nisbatan nafrat uyg'otish;

- o'quvchilarda mehnat va mehnat axliga hurmat tuyg'ularini qaror toptirish;
- ularda mehnat qilish borasida javobgarlikni xis etish tuyg'usini tarbiyalash;
- ularning mehnatga ongli munosabatda bo'lishlariga erishishi;
- mehnatda ijodkorlikni qo'llab-quvvatlash;
- o'quvchilarda jamiyat va umumxalq mulkini ko'z qorachig'idek asrash tuyg'ularini shakllantirish;
- mehnatda do'stlik, o'rtoqlik va xamkorlikka erishish;
- o'quvchilarning mehnatni go'zallik manbai sifatida tushunishlariga erishish va boshqalar.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi

- yosh avlodda mehnat qilish istagini qaror toptirish va ularni zamonaviy ishlab chiqarishning turli soxalarida faoliyat yuritishga tayyorlash;
- o'quvchilarda umumjamiyat manfaati yo'lida mehnat qilish extiyojini hosil qilish;

Mazkur yangiliklarni o'quvchilarni mehnatga psixologik va pedagogik jihatdan tayyorlash ularni qiziqish va qobiliyatlarini aniqlash orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqotning metodologik asosi. Tadqiqot ishning metodologik asosida jahon pedagogikasida yaratilgan qonuniyatlar tamoyillar va fikrlar. O'rta Osiyo allomalarining bola tarbiyasida mehnatsevarlikni ahamiyati to'g'risidagi ta'limotlari, milliy an'analar negizidagi ibratli fikrlar, xalq ijodiyoti namunalari hamda Respublikamizning birinchi Prezidenti I.A.Karimovning va Prezidentimiz Sh. Mirziyoevning asarlari, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun, "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi", "Davlat ta'lim standarti" mehnat ta'limi fanidan o'quv dasturlari va yoshlarning ta'lim-tarbiya olishlari, kasb-hunarlar egallashlari uchun chiqarilgan farmonlar izlanishimizga asos bo'ldi.

Tadqiqotning metodlari quyidagilardan iborat:

1. Fan o'qituvchilarining dars jarayonlarini kuzatish va tahlil qilish;
2. O'quvchilarni mehnatga qiziqishi, mehnatsevarlik haqidagi tushunchasi,

tarbiyasi mohiyatini aniqlash maqsadida so'rovnomalar (anketa)dan foydalanish.

3. O'qituvchilar va o'quvchilar o'rtasida mehnatsevarlik haqida qanday tushuncha, fikrlar, takliflar, mehnat qilishni ijobiy tomonlari haqida individual suhbatlarni uyushtirish.
4. O'quv jarayonidan tashqari vaqtlarda mehnatsevarlikka oid tadbirlar o'tkazishni tashkil qilish.
5. Pedagogik tajribalarni amalga oshirish.
6. Trening mashg'ulotlarini uyushtirish va boshqalar.

Ana shularni e'tiborga olib, biz "Kasb-hunar kolleji o'quvchilarida kasbga qiziqishini shakllantirishning aksiologik imkoniyatlar tizimi."

mavzusidagi magistrlik ilmiy tadqiqot ishini olib bordik. Ushbu mavzuni tanlashimizdan maqsadimiz shuki, hozirgi kunda ta'lim islohotlarini amalga oshirish jarayonida yangilikka intilish, jahon talablari darajasiga ko'tarilishi, ta'lim jarayonini modellashtirish, yangi pedagog texnologiyalardan va innovasiyalardan foydalanish, noan'anaviy usullarda darslarni tashkil etish, bir xil usuldagi darslarga barham berish, o'quvchilarning faolligini oshirish bugungi kunning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi. SHularni hisobga olib, yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda noan'anaviy usullarni ishlab chiqish, interfaol usullarga tayanib ish olib borish va o'quvchilar faolligini oshirishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ydik.

Mehnatsevarlik tarbiyasi doim davlatimizning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. CHunki davlatning jamiyatning rivoji, ravnaqi o'sib kelayotgan yosh avlodga bog'liq. Ta'lim – tarbiyaning poydevori mustahkam bo'lsagina biz o'z maqsadimizga erishishimiz mumkin. Demak, ta'lim-tarbiya tizimini to'g'ri yo'lga qo'ya olish bu oldimizda turgan eng oliy vazifamizdir.

Kasb-xunar kollejida o'quv-tarbiya jarayoni o'quvchilarning qobiliyati va layoqatlarini har tomonlama rivojlantirishga, ular shaxsini shakllantirishga qaratilgan. Pedagogika jarayonining samaradorligi pedagogning o'z tarbiyachilarini yaxshi bilishga, ta'lim va tarbiyaning xilma-xil metodlarini qo'llashga bog'liq.

Mehnat tarbiyasi o'quvchilarning aqliy, ma'naviy-axloqiy, jismoniy va estetik tarbiyasi bilan o'zaro bog'liq holda yaxlit tizimda amalga oshiriladi.

Jumladan:

- Aqliy tarbiya o'quvchilar mehnat tarbiyasi, ularni kasbga tayyorlashning asosi sanaladi. Mehnat nazariy va amaliy bilimlarni egallashga yordam beradi, bilim esa o'z navbatida shaxsni mehnatga tayyorlashni takomillashtiradi. Mehnat tarbiyasining samaradorligi o'quvchilarning mehnat faoliyatiga tayyorlash jarayonida har tomonlama rivojlangan shaxsni tarbiyalash vazifasi bilan belgilanadi.
- Mehnat tarbiyasi axloqiy tarbiyaning asosiy vositasi hisoblanadi. Chunki mehnat faoliyati yordamida o'quvchida mehnatsevarlik, intizomlilik, irodalilik, tashabbuskorlik, mustaqil harakat qilish kabi axloqiy xislatlar ham shakllanadi.
- Mehnat tarbiyasi estetik tarbiya bilan mustahkam aloqada olib boriladi. Mehnat tarbiyasi mazmuniga estetik elementlarni singdirish asosida uni amalga oshirish o'quvchilar mehnat tarbiyasida katta ahamiyat kasb etadi. Mehnatda go'zallik va o'z mehnatidan zavqlanish uning yanada samarali kechishiga yordam beradi.
- Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar risolasida milliy istiqlol mafkurasining ijtimoiy iqtisodiy asoslari haqida fikr yuritilar ekan, "Milliy istiqlol mafkurasida o'z mohiyatiga ko'ra, har bir fuqaroning munosib turmush darajasini ta'minlaydigan farovon hayot kechirishga chorlaydi. Har bir insonni, u qaysi shakldagi mulkchilik asosida mehnat faoliyati bilan shug'ullanmasin, shaxsiy manfaatlarini xalq va vatan manfaati bilan o'zaro uyg'unlashtirib yashashga undaydi. Yuqoridagi mezonlar asosida o'quvchilarni bo'lg'usi kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonini barcha ta'lim-tarbiya ishlarini mustahkam aloqada, hozirgi zamon talablariga mos holda olib borish taqozo etiladi.

I bob . KASB-HUNAR EGALLASH VA MEHNAT QILISHNING

AHAMİYATI HAQIDA NAZARIY ASOSLAR.

1.1. Avestoda kasb-hunar egallash va mehnat qilish borasidagi qarashlar

«Avesto» - qadriyatlar manbai. «Avesto» - zardushtiylik dinining muqaddas kitobi hisoblanib, dastlabki Sharq falsafiy qarashlarini o'zida aks ettiruvchi manbadir. Unda insonni kamolotga erishuvida mehnat, ezgulik, insoniylik, soflik, bag'rikenglik kabi sifatlarning ahamiyati chuqur ifodalangan.

Zero, zardushtiylikda axloqlikning asosi, sahovatlilik belgisi - mehnat deb ko'rsatilsa, ishyoqmaslik barcha nuqsonlarni keltirib chiqaruvchi sabab ekanligiga urg'u beriladi. Ayniqsa, dehqonchilik sohasida qilinayotgan mehnat yaxshilikni yuzaga chiqaruvchi asosiy omil, deya ta'kidlanadi. Dehqonchilik bilan shug'ullanish, mo'l-ko'l hosil etishtirishga qaratilgan harakat Axura Mazda qonuniga bo'ysunish sanalgan. Don ekkan kishi taqvodorlik urug'ini ekishi, Mazdaga ixlosmandlik e'tiqodini ilgari surishi, imonni oziqlantirib turishi o'n ming marta ibodat qilish bilan barobar, yuzlab qurbonlik qilishga teng deyiladi. «G'alla erdan unib chiqqanda, devlar larzaga keladi, g'alla o'rib olinayotganda devlar nola-faryod chekadi, g'alla yanchib, un qilinayotganda ular qocha boshlaydi, xamir qilinganda esa devlar mahv bo'ladi. G'allaning mo'l-ko'l bo'lishi devlarning labiga qizitilgan temir bosilgandek ularni tum-taraqay qiladi».

Ushbu misollarda «Avesto»da inson mehnati tufayli barcha yomon xislat, yomonlik hamda yovuzliklardan qutilishi mumkin, degan g'oya ilgari suriladi.

«Avesto»da inson fikri, so'zlari va ishlariga ikki qarama-qarshi kuch: Voxu Mana (Ezgu fikr) va Ako Mana (Yovuz fikr) ta'sir ko'rsatadi, deyiladi. Barcha fikr, so'z va ishlar asosida aslida ezgulik va yovuzlik yotadi («YAsna», 30-bob). Asta-sekin axloqiy tushunchalar shaxsiy mazmun kasb eta boshlaydi. Masalan, «yaxshi so'zlar» deganda ahdida turish va berilgan va'dani bajarish kabilar nazarda tutilsa, «yaxshi amallar» deganda esa, savdo-sotiq ishlarida halol bo'lish, qarzni vaqtida to'lash, o'g'rilik va talonchilik qilmaslik, o'zgalarning moliga ko'z olaytirmaslik, buzuqliklardan o'zini tiyish, atrofdagilarga ziyon etkazadigan har

qanday harakatni sodir etmaslik va hokazolar tushunilgan.

Ezgu kuchlarga yovuz kuchlar qarshi bo'lgan. YOvuz ruhlarga Drudjo (yolg'onchilik ruhi) boshchilik qilgan. Unga YOvuz fikr (Ako Mana), Talonchilik ruhi (Eshma) yordam bergan. YOvuz, yomon fikr - Ako Mana, yomon so'z – Drudjo hamda yovuz amal, yomon ish – Eshma obrazlari timsoli yordamida ifoda etilgan.

Zardusht yovuzlik kuchlariga ko'maklashgan kishilarga nisbatan ayovsiz munosabatda, shuningdek, chorvachilik rivojiga xalal beruvchi yolg'onchilik ixlosmandlariga qarshi kurashda esa shafqatsiz bo'ladi. «Kimki menga sodiq bo'lsa, eng yaxshi narsaga musharraf bo'ladi, kimki sodiq bo'lmasa, unga eng yomon narsa nasib etadi... Kimki meni – Zardushtni quvvatlasa, buning evaziga istagan barcha narsalari bilan birgalikda bir juft sog'in sigir ham oladi» («YAsna», 46-bob), deyiladi asarda.

«YAxshi fikr» iborasining mazmuni o'zida ilohiy qonun ruhidagi g'oyalarga ega bo'lish, yaqin kishisiga nisbatan mehribonlik ko'rsatish, muhtojlarga ko'maklashish, yovuzlikka qarshi kurashga doimo tayyor turish, kishilarning baxt-saodati yo'lida harakat qilish, ahillik, qabiladoshlar bilan birga do'stlik va totuvlikda yashashga intilish ruhidagi niyat va fikrlar musaffoligini aks ettiradi. Inson fikran ham boshqalarga hasad qilmasligi lozim. YAxshi niyatli kishi darg'azab bo'lmaydi, jaholatlarga berilmaydi.

«Avesto» ta'limotida jismoniy va ma'naviy dunyo uch hayotiy davrga bo'linadi.

Birinchi davr eng qadimgi davr sanalib, u ilk hayotni bildiradi. Bunda ham jismoniy, ham ma'naviy dunyoda yaxshilik tantana qiladi. Dunyoda yorug'lik va insoniy saodat hukmron bo'lgan. YAgona jinoyatchi – hokim Yima Vivaxvant bo'lib, u kishilarni batamom rozi qilmoq uchun ularga mol go'shti ediradi.

Ikkinchi davr hozirgi davr bo'lib, bu davrda yaxshilik ruhlari bilan yomonlik ruhlari o'rtasida kurash davom etadi.

Uchinchi davr – bo'lg'usi hayot. Bu davrda aql-idrok va adolat tantanasi o'rnatiladi. Bo'lg'usi yaxshi hayotni Artu o'rnatib, dehqonlar badavlat, hokimiyat

esa mustahkam bo‘ladi, deyiladi. «YAxshilik ta’limni va sadoqatni amalga oshirib yaxshi hokimlar hukm yuritaversinlar. Odamlarga va ularning avlodlariga baxt-saodat keltiradigan ta’limni amalga oshirsinlar».

Xulosa qilib aytganda, «Avesto» asarida insonning barkamol bo‘lib etishishida uning so‘zi, fikri hamda ishi bir bo‘lishiga katta e’tibor beriladi. Ushbu axloqiy uchlik g‘oyasi eng qadimgi davrlardan boshlab kishilik jamiyati taraqqiyotining barcha bosqichlarida yaratilgan komil inson muammolariga bag‘ishlangan SHarq falsafiy fikrlari mazmunining shakllanishiga asos bo‘lgan desak, xato qilmagan bo‘lamiz. Zero, unda odamning inson sifatida ma’naviy va moddiy kamol topishi uchun zarur bo‘lgan muayyan talablar o‘z ifodasini topib, hayot kodeksi sifatida nafaqat SHarq, balki G‘arb xalqlarining ham muqaddas ma’naviy merosiga aylangan.

Tasavvuf ta’limotida aksiologik fikrlarning aks etishi. Komil inson haqida gap ketganda, axloq-odob tamoyillariga urg‘u berilishi bejiz emas. Nainki, odamning insonligi, uning ongli mavjudot sifatida hayot kechirishi va turmush tarzi, tabiat, jamiyat va odamlarga bo‘lgan turli-tuman munosabatlarida namoyon bo‘ladi. Uning axloq-odobi ana shu insoniy axloq chegarasida turib muomala qilishi, tarixan o‘z axloqiy tushuncha va tasavvurlarini boyitib, kengaytirib va rivojlantirib kelganidan dalolat beradi. Lekin odamzot va uning ma’naviy dunyosi shunchalik keng va murakkabki, u ayrim insoniy fazilatlar, ko‘nikish va salohiyatlari bilan chegaralanib yoki belgilanib qolmaydi. U murakkab jismoniy, aqliy va ruhiy mushtaraklikni taqozo etadi. Ana shunday murakkablikning tizimlashtirilgan ko‘rinishi tasavvuf ta’limotida o‘z aksini topgan.

Tasavvuf ta’limoti VIII asr oxiri va IX asr boshlarida paydo bo‘lib, butun musulmon mamlakatlarida, jumladan, Movarounnahrda ham keng tarqalgan. Tasavvuf butun SHarq ma’naviy hayotida inson kamoloti haqidagi g‘oyalarning shakllanishida muhim rol o‘ynagan.

So‘fiylik ta’limotida komil inson – bu dono, oqil, pok niyatli odamdir. Ular ilohiy poklik, nafosat, e’tiqod va tafakkur insoniyatni balo-qazolardan asraydi, ularni avaylab asraydi, deb bilganlar. So‘fiylar ana shu yo‘l, – mana shu haqiqat

uchun intilganlar. Aslida esa, komil inson – bu ularning ideali, orzusi bo‘lgan. Ular ana shu komil inson, ma’rifatli inson ideali orqali johiliyat va nodonlikka, hirs va ta’мага qarshi bel bog‘laganlar.

Taniqli olim N.Komilov ta’rifi bilan aytganda: «Komil inson — bir ideal, barcha dunyoviy va ilohiy bilimlarni egallagan, ruhi mutlaq ruhga tutash, fayzu karomatdan serob, siyrat-u, suvrati saranjom, qalbi ezgu tuyg‘ularga limmo-lim pokiza zot».

So‘fiylar inson ma’naviy-ruhiy komillikka erishish yo‘llarida to‘rt bosqichni o‘tishi kerak, deydi.

Birinchi bosqich – shariat. Diniy marosimlar va shariat aqidalarini, taqvolarini aynan, izchil bajarish, chunki shariat qonun bo‘lib, bu qonun vujudni va qalbni tarbiyalaydi.

Ikkinchi bosqich – tariqat: nafsni tiyish, xushnudlik, xudoni o‘ylash, xilvat, ma’naviy muhabbatni chuqurlashtirib, xudo to‘g‘risida o‘ylash, ya’ni tariqat – fano, o‘zdan kechish, ko‘ngilni poklab, ruhni nurlantiruvchi yo‘l, faoliyat shakli.

Uchinchi bosqich – ma’rifat: hamma narsaning, butun borliqning asosi – xudo ekanini, o‘zining mohiyati xudo mohiyati bilan birgaligini bilish va anglash. Bunda odam uchun barcha kibr-u havo, manmanlik, shon-shuhrat bema’ni bo‘lib ko‘rinadi, shunda u orif, ya’ni bilimli, xudoni tanigan bo‘ladi.

To‘rtinchi bosqich – haqiqat. Bunda so‘fiy xudoning dargohiga erishadi, vasliga vosil bo‘ladi, u bilan birlashadi, shu orqali inson foniy, ya’ni «analhaq» bo‘la oladi.

Arab musulmon olami Uyg‘onish davri mutafakkirlarning aksiologik qarashlari. Ko‘plab ijtimoiy qarama-qarshiliklarga qaramay, O‘rta Osiyolik qomusiy mutafakkirlar faqatgina tabiatshunos olimlarga bo‘lib qolmadilar. SHuningdek, ular insonparvarlik g‘oyalarini targ‘ib etuvchi va izohlab beruvchi faylasuf-mutafakkirlar sifatida ham nom qoldirishdi.

Ilg‘or mutafakkirlar – Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sinolar ijtimoiy tuzum, davlatning gullab-yashnashi uchun zarur bo‘lgan insonparvarlik g‘oyalarini ilgari surishdi hamda insonparvarlashuv bosqichlari

tamoyillarini ishlab chiqishdi.

Oʻrta asrlar SHarq fani va madaniyati etakchilari orasida shubhasiz, oʻz davrida zamondoshlari tomonidan «Muallim us-soniy» («Ikkinchi muallim») deb nom berilgan Abu Nasr Forobiy (870-950) birinchi oʻrindan joy oladi.

Forobiyning ijtimoiy gʻoyalari nihoyat darajada taraqqiyparvar va insonparvardir. U insonni ijtimoiy hodisa sifatida qaraydi va odamlar orasidagi insonparvar munosabatlar ularning qiziqishlari, xohish-istaklari va oʻzaro yordam berishlarining birlashuvi asosida yuzaga chiqadi, deb hisoblaydi. «Fozil odamlar shahri» asarida olim hukmdor timsolida oʻzida aql, iroda, ilm-fanga qiziqish, adolatparvarlik, mulohazakorlik, uddaburonlik kabi sifatlarni jamlovchi komil insonga xos jihatlarni mujassamlashtiradi.

Inson muammosi va uning rivojlanishi Forobiy falsafiy tizimining eng muhim va murakkab tarkibiy qismini oʻzida aks ettiradi. Buning sababi, uning ijtimoiy, ijtimoiy-siyosiy taʼlimoti markazida har tomonlama barkamol inson va insoniyat, ularning umumiy baxti, yuksak fozillikka erishuvi yoʻllari va usullari muammosi turadi. Bularning barchasi olim dunyoqarashi yuksak insonparvarlikka asoslanganidan guvohlik beradi.

Olim ayniqsa, axloq, inson xulq-atvori, va uning taʼlim-tarbiyasiga katta ahamiyat beradi. Uning fikricha, inson maʼnaviyatining yuqori darajasi qalbi, aqli va fikrlashida aks etadi.

Oʻzining asarlarida mutafakkir yuksak axloqiy sifatlar – mardlik, saxiylik, doʻstlik, qanoatlilik, odamlar bilan birgalikdagi faoliyatda insoniy xulq-atvor meʼyorlariga amal qilish zaruriyati haqida alohida toʻxtalib oʻtadi.

SHarq Uygʻonish davrining buyuk qomusiy olimi Abu Ali ibn Sino oʻz vaqtida barcha bilim sohalarini egallagan edi, shu sababli oʻziga xos pedagogik tizimni yarata oldi. Haqiqat yoʻlida va odamlarga qilgan buyuk xizmatlari Ibn Sino uchun dahshatli qiyinchiliklar keltirganligi tarixdan bizga yaxshi maʼlum.

Ibn Sino qatʼiylik bilan xotirjamlik hamda aʼzolarining oʻzaro munosabatlarida uygʻunlik va oʻzaro bir-birini tushunish mavjud boʻlgan jamiyat zarurligi haqida gapirgan edi. Insonparvar olim bunday jamiyatni oʻzi juda

qiziqarli asoslab bergan edi: odamlar bir-biri bilan muloqot qilmasdan, hamkorliksiz, o‘zaro yordamsiz, bir-biriga xizmat qilmasdan, bir-biriga nisbatan yaxshilik qilmasdan, mavjud ham bo‘lolmaydi, yashay ham olmaydi. SHuning uchun olim o‘zining «Kitob ash-ishorat va tanbihot» asarida mana bunday yozadi: «Inson xuddi odamzod urug‘ining boshqa vakillari bilan muloqotdagi kabi ehtiyojlarini qanchalik qondirmasin, biroq o‘zining shaxsiy ehtiyojlari mustaqilligi mazmunida alohidalilikni ifoda etmaydi. Odamlar orasida tashkil etilgan o‘zaro aloqadorlikdagi ayriboshlash jarayonida har biri boshqasini qandaydir g‘amtashvishdan qutqarib qoladi. Agar har biri alohida bajarganda edi, qo‘lidan keladigan ish bo‘lganida ham, uning elkasiga og‘ir mashaqqat tushgan bo‘lar edi. SHu sababli odamlar orasida o‘zaro kelishuv, adolat va qonunlarning aniqlangan me‘yorlari zarur.....».

Olim pedagogikasining asosiy tamoyili – bola xarakterida ijo-biy jihatlarni tarbiyalash, uni to‘g‘ri xulq-atvorga o‘rgatish va foydali odatlarga odatlantirishga katta e‘tibor qaratganligidadir. Mutafakkir bolalar va yoshlarni har tomonlama ta‘lim va tarbiya olishi, savodini chiqarish, ilm-fan, hunarmandchilik, savdo-sotiq, san‘at asoslarini o‘rgatish orqali hayotga tayyorlashning lozimligi uchun jonbozlik ko‘rsatdi.

X – XI asrning buyuk mutafakkirlari – Forobiy, Zakariya ar-Roziy, Beruniy, Ibn Sino va boshqalarning qarashlarini meros bo‘lib o‘tishi keyincha-lik boshqa SHarq mutafakkirlari, shu jumladan Ma‘mun akademiyasi olimlarining axloqiy-ma‘rifiy, o‘z-o‘zini axloqiy tarbiyalash, o‘z-o‘zini takomillashtirish, «bilim – jamiyat ravnaqi uchun» kabi fikr va qarashlarida aks etdi. Quyidagi misollarda bunday aloqadorlikni yaqqol ko‘rish mumkin: «Bilimdan tashqari yaxshi shaxsiy sifatlarga ega bo‘lgan kishigina aqllidir»(Forobiy); Oqil kishi o‘zida zamondoshlarining eng yaxshi sifatlarini mujassam etadi», «Qanchalik aqlli bo‘lmasin, agar u jamiyat uchun foyda keltirmasa, u komil inson emas»(al-Masixiy); «Kim o‘zining his-tuyg‘usini boshqara olsa, o‘z qalbini tarbiyalay olsa, o‘sha oqildir»(Beruniy).

Insonparvarlik an‘analarining rivojlanishida Beruniy (973-1048) muhim

hissa qo'shdi. Insonni o'z tabiatiga ko'ra ijtimoiy mavjudot deb hisoblagan olim axloqiylik va mehnatsevarlikni shaxs insoniy qadr-qimmatining asosiy mezonlari sifatida belgilab berdi.

Beruniy merosi o'zida ta'lim va tarbiya mazmuni, ilm-fanga oid qimmatli g'oyalarni o'z ichiga olgan mislsiz ilmiy nazariyalar to'plamini qamrab olgan. Ular orasida olingan bilimlarning amaliy qo'llanilishi muhimligi, motivatsiya va bilishga ehtiyoj, insonning o'z dunyoqarashini o'stirishga intilishiga asosiy urg'u berilgan.

Beruniy pedagogik qarashlarining insonparvarlikka yo'naltirilganligi uning insoniy o'zaro munosabatlar asoslari sifatidagi axloqiylik va jamoaviylik, bilimlarning inson husniga ta'siri haqidagi qarashlarida o'z aksini topgan.

Beruniyning qarashlari ilm-fan, ta'lim va ma'rifatparvarlik masalalari bilangina chegaralanmaydi. Balki yoshlarda tarbiyalash lozim bo'lgan yaxshilik, ziyraklik, ko'ngilchanlik, haqiqatparvarlik, adolatli bo'lishga intilishni – eng muhim sifatlar, deb hisoblaganligi bilan ham qadrlidir.

Beruniy oliyjanoblik va insonning yuksak ma'naviy o'y-fikrlari – bu tug'ma insoniy xususiyat ham, temperamentning psixologik o'ziga xosligi ham emasligini, aksincha oliyjanoblik axloqiy ish va hatti-harakatlar natijasida tarbiyalanishi va egallanishi haqidagi fikrni ilgari surdi.

XV asrda O'rta Osiyo sharoitida Forobiyning ijtimoiy-siyosiy va insonparvarlik g'oyalarini davom ettiruvchi va targ'ib etuvchilaridan biri buyuk mutafakkir-shoir Alisher Navoiy bo'ldi.

Navoiy ijodining asosini inson va uning ma'naviy dunyosi haqidagi chuqur o'y-xayollar, olam va «muhabbat» va «go'zallik» tushunchalari ta'sirida qaraladigan hayot mazmuni haqidagi fikrlar tashkil etadi. Muxabbat – bu insonni yomonliklardan va his-tuyg'uga berilishdan forig' etuvchi ulug'vor axloqiy kuch. U o'zida oliyjanoblik va mardonavor ruhni, vafodorlikni, insonning barcha imkoniyatlari va ma'naviy kuchini faol namoyon bo'lish yo'lini aks ettiradi. Inson ruhining go'zallikka intilishi va bu go'zallik uchun axloqiy jasorat ko'rsatishga tayyorlik Navoiyda shoirning ijodiy tasavvurida yaratilgan yuksak ulug'vorlik

ko‘rinishida tasvirlanadi.

Go‘zallikka erishish insondan axloqiy jasorat hamda Navoiyning ishqiy-sarguzasht dostonlarida ichki, yashirin motivlar sifatida tavsiflangan doimiy axloqiy takomillikni talab etadi.

Navoiyning insonparvarlik qarashlarida asosan, shaxsiy qadriyatlar sifatida qaralgan qadriyatli tushunchalar tizimi namoyon bo‘ladi. O‘tmishdoshlari singari shoir ham insonning qadr-qimmatini uning axloqiy sifatlari – qalban poklik, oliyhimmatlilik va do‘stlik, insonning bilish imkoniyatlarini cheklanmaganligi va dunyoni yaxshi tomonga o‘zgartirishda ko‘radi. Inson qadr-qimmatini yuqori nasl-nasab yoki tabaqa, boyluk, ijtimoiy kelib chiqishiga qarab emas, odamlar va jamiyat ravnaqi uchun sarf etilgan axloqiy sifatlari va amaliy faoliyat bilan o‘lchanadi. «Sab’ai sayyor» asarida Navoiy yozadi: «YUqori martaba va unvon kishilarga obro‘ keltirmaydi, xushaxloqlilik va or-nomus ularning oliyjanoblighi va obro‘ sini belgilab beradi. Qachonki, yomg‘ir (axloqiylik)ning manbai or-nomusdan shakllangan bo‘lsa, mazkur yomg‘ir tomchisi suvsiz adir uchun obi-hayot beradi. Axloqsiz kishilar hurmatga sazovor bo‘la olishmaydi, ular razil va osmon gumbazining ostidadirlar».

Insonning axloqiy tarbiyasida Navoiy aqlga asosiy e‘tibor beradi. Dostonda ijod sohibi sifatida insonning yuqori darajada etukligi va qadr-qimmatini asoslashga imkon berishni so‘raydi. Alisher Navoiyning inson haqidagi konsepsiyasi uning olam haqidagi ta‘limoti bilan bevosita bog‘liq. Ma‘lumki, bizni o‘rab turgan hayot ilohiylikni o‘zida namoyon etadi, inson esa unda ilohiy borliqni sohibi sifatida gavdalanadi. Inson va Olloh haqidagi bunday tasavvurlarda mutafakkir-shoir o‘zining insonparvarlik tamoyillarini asoslaydi: insonni ulug‘laydi, ilohiy ibtido sohibi sifatida uning shaxsini hurmat qilishni talab etadi, axloqiylik va ma‘naviy etuklik ruhida diniy ko‘rsatmalarni sharhlaydi, shaxsiy e‘tiqod g‘oyasini ilgari suradi.

1.2 Xalq pedagogikasi – bebaho qadriyat ekanligini asoslash.

Ta'lim-tarbiya tarixiga nazar tashlar ekanmiz, dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridan tortib, buyuk mutafakkirlar ijodigacha yoshlarni mehnatsevar bo'lib yetishishi, kasb-hunaro'rganish, mehnat ahlini hurmat qilish hamda mehnat insonni ulug'lash masalalariga alohida e'tibor berilganligiga guvoh bo'lamiz.

Buni biz turli davrlarda yaratilgan ta'limiy-axloqiy asarlar va xalq og'zaki ijodi namunalari topishmoq, xalq qo'shiqlari, masal, maqol, ertak va dostonlarda mehnat va kasb-hunar odobi, axloqi va qoidalarini o'zlashtirish muhim hayotiy zarurat ekanligi ta'kidlanadi.

Bundan tashqari «Avesto», Kaykovusning «Qobusnoma», Abu Nasr Forobiyning «Fozil odamlar shahri», Abu Rayhon Beruniyning «Geodeziya», «Minerologiya», Mahmud Qoshg'ariyning «Devonu lug'atit turk», Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig», Alisher Navoiyning bir qator asarlari va shu kabi ma'rifiy meros namunalarida mehnatsevarlik, kasb-hunarning ahamiyati haqida muhim fikrlar bayon etilgan. Bular dastlabki xalq og'zaki ijodi namunalaridagi xalq eposlari, ertak, maqol va topishmoqlardan boshlangan².

Mana shunday ertaklardan biri «Aql va boylik» ertagidir. Bunda chol to'rt o'g'liga qarata «Kim aqlli va davlatmand bo'lsa, o'sha oila boshlig'i bo'lib qoladi», degan so'zlariga o'g'illaridan biri zumrad ko'zli oltin uzugi, ikkinchisi zarbof choponini, uchinchisi esa qimmatbaho kamarini ko'rsatadi.

Kenja o'g'il esa otasining savoliga «Menda zumrad ko'zli uzuk ham, zarbof chopon ham, qimmatbaho kamar ham yo'q. Lekin mehnatkash qo'lim, botir yuragim, aqlli boshim bor», - deydi va otasi uni oila boshlig'i qilib, uy-ro'zg'orini meros qoldiradi.

Ko'rinib turibdiki, xalq bu ertak vositasida yoshlarga insonni hayotda baxtli qila oladigan narsa mehnat degan g'oyani ilgari surgan.

Faqat ertaklarda emas, xalq maqollarida ham mehnatsevarlik, mehnatda hamkorlik, mehnatning insonni baxtli-saodatli qilishi ifodalangan. Masalan:

Daryo suvini bahor toshirar,

Inson qadrini mehnat oshirar.

² Avloniy A. «Turkiy Guliston yoxud axloq». T. «O'qituvchi» 1992.

*Oltin o 'tela bilinar,
Odam mehnatda.*

*Mehnatda do 'st ortar,
G'iybatdan dushman.*

kabi maqollar shular jumlasidandir.

Yusuf Xos Hojibning «Qutadg'u bilig» asarida esa shahar va qishloq xalqini ijtimoiy tabaqalarga ajratib, dehqonlar, hunarmandlar, chorvadorlar[^] olimlar, tabiblar va boshqalar haqida so'zlab, ularning jamiyat hayotidagi o'rniga alohida to'xtalib o'tadi. Turli kasblar, ayniqsa, dehqonchilik, hunarmandchilik va chorvachilikka oid fikrlarini bayon etadi. U dehqon, hunarmand va chorvadorlarni jamiyatning moddiy boyliklarini yaratuvchi sifatida ta'riflaydi.

Masalan, alloma dehqonlar haqida:

Hammasiga yeyim (va) ichimdan halovat yetadi). Deb dehqonlar mehnatini ulug'lash bilan birga, hunarmandlar haqida ham «juda zarur kishilardir... temirchi, tikuvchi, etikdo'z, suvchi, egarchi, toshchi, o'qchi, kamonchilarning foydasi katta. Ularni sanay berib ko'zim uzayib ketdi. ... Bu dunyoga ular yaxshilik keltiradilar, Ular juda ko'p ajoyib narsalarni ishlaydilar», - deb o'zining xayrixohligini bayon etadi va hukmron doiralarga mehnatkashlar bilan munosabatda bo'lish shartlari xususida o'z tavsiyalarini bayon qiladi.

Dehqonlarga nisbatan:

(O 'zing bular bilan aralashgin, qo'shilgin,

Tilda yaxshi so 'zla, yuzingni ochiq tut).

Hunarmandlarga nisbatan:

(Bular ham senga kerakli kishilardir,

Bularni yaqin tut, foydasi tegadi (ey) bahodir).

Chorvadorlarni ham haqiqiy mehnatkash inson sifatida ulug'lab:

(Aralashgin, qo'shilgin, yedir ham ichir,

*To'g'rilik ichra tirikchilik kechir.
Nima so 'rasa bergil, kerak bo 'lsa ol
Chindan ko 'rdim ushbu odamlar
Hiyla-nayrangni bilmaydi(lar).*

Yusuf Xos Hojibning mehnat ahli haqidagi bu fikrlari haqiqatan ham ularga nisbatan hurmat va ehtiromni anglatadi. Yusuf Xos Hojibning mehnat tarbiyasiga oid progressiv qarashlari tarbiyaviy jihatdan diqqatga sazovordir.

XV asrning yirik mutafakkiri Alisher Navoiyning mehnatkash insonni ulug'lovchi, mehnat tarbiyasi haqidagi fikrlari «Hayratul abror», «Farhod va Shirin», «Mahbub-ul qulub» asarlari ham mavjud.

Alisher Navoiyning haqiqiy inson uchun eng yaxshi fazilatlardan biri mehnatsevarlik deb ko'rsatadi. U «Hayratul abror»ning beshinchi maqolatida kishilarning saxovatiga ko'z tikishdan ko'ra o'z qo'li bilan hayot kechirish ulug'roq va oliyjanobroq ekanligini «Hotam Toyi» hikoyatida keltiradi.

Hotam Toyi bir kuni qo'y-qo'zilar so'ydirib, xalqqa katta ziyofat beradi. So'ng biroz dam olish uchun dalaga chiqadi. Unga yelkasida o'tin ko'tarib kelayotgan birchol uchraydi. Hotam Toyi unga «Dashtda yurib bexabar qolgandirsan, tashla bu og'ir yukni, Hotam uyiga borib ziyofatda izzat ko'rgil», - deydi. Shunda chol kulib: «Ey, oyog'iga hirs band solgan, g'ayrat vodiysiga qadam urmagan kishi, sen ham bu tikan mehnatini chekkin va Hotamning minnatidan qutulgin», - deb javob qiladi.

Hotam Toyi cholning bu so'zlariga tan beradi va halol mehnat bilan kun kechirishi uning himmatidan baland ekanligini anglaydi.

Alisher Navoiy mehnatning insonni go'zallashtirishi, faqat mehnat tufayligina insonning kamol topishi mumkinligini ta'kidlaydi. Shu maqsadda u qator mehnatsevar badiiy obrazlarni yaratadi. Masalan, «Farhod va Shirin» dostonining asosiy qahramoni Farhod ana shunday qahramonlar jumlasidandir.

Farhod Armaniston o'lkasiga qadam qo'yganda, o'z yurtida Qorandan o'rgangan tosh yo'nish hunarini ishlatib, og'ir mehnatdan ezil'gan xalqqa yordam beradi. O'z hunari, mehnati tufayli bir tomondan xalqning og'ir mehnatini

yengillashtirgan bo'lsa, ikkinchi tomondan sevgilisi Shirinning hurmatiga sazovor bo'ladi.

Farhodning mehnatsevar va ijodkorligidan ilhomlangan Alisher Navoiy o'z dostonining ikkinchi nomini «Mehmonnoma» deb ataydi.

Mehnatga muhabbat, ijodkorlik dostonning markaziy masalalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Navoiy «Mahbub-ul qulub» asarida esa turli ijtimoiy guruhlarning hayotidagi o'rnini belgilaydi, fazilat va nuqsonlarini ko'rsatadi. Dehqonlar to'g'risida fikr yuritar ekan, «Dehqonki dona sochar, yerni yormoq bila rizq yo'lin ochar. ... Olam ma'murlig'i alardin va olam ahli masrurlig'i alardin. Har qayonki, qilsalar harakot, elga ham qut yetkumr, ham barakot», - deb dehqonlarni, ya'ni, mehnatkash insonni ulug'laydi. Shu bilan birga shoir bu asarida tekinxo'rlarni, nojo'ya ish tutuvchi kishilarni, ochko'z va ta'magirlarni, mehnat qilmay hayot kechiruvchi shaxslarni tanqid qiladi.

Ma'rifatparvar shoir Furqat ham o'zining ma'rifiy she'rlarida ilm, hunar haqida fikr yuritar ekan, har birsog'lom fikrlovchi insonni hunar egallashga da'vat etadi, hunarga mehr qo'ygan, uni o'rganishni da'vat etgan kishining jahonda qadri baland bo'lajagini uqtiradi³.

Pedagog-shoir H.H.Niyoziy esa maktab yoshlarni ilmli, odobli qilib tarbiyalashi va hunarga o'rgatishi kerak, - deb ta'kidlagan ekan, yoshlar ma'naviy fazilatlarining shakllanishida mehnatning rolini yuqori baholaydi. She'rlarida bolalarni ota-onalarining mehnati qadriga yetishga undaydi.

Hamza Hakimzoda Niyoziy yoshlikda ilm olishning ahamiyati haqida gapirar ekan, «O'qi», «Kitob», «Qalam» kabi she'rlarida ilmni mehnatsiz egallab bo'lmasligi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi.

U yoshlarga kelajakda o'z orzulariga yetishish, ilm-fanni egallash uchun yoshlikdan mehnat qilish zarurligini ta'kidlaydi.

Yuqoridagi fikrlar o'quvchi-yoshlarning mehnat tarbiyasida muhim vosita sanaladi.

³ Hasanov S Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida. T.: «O'qituvchi» 1993.

1.3. Kasb-xunar kolleji o'quvchilari mehnatsevarlik va kasbga yo'naltirish borasida qanday qadriyatlarni bilish darajalari

O'zbekiston Respublikasining istiqlolga erishuvi hamda o'z mustaqil siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy yo'liga ega bo'lish, xalq xo'jaligining turli soxalarida, jumladan xalq ta'limi tizimida ham o'sib kelayotgan yosh avlod ta'limg'tarbiyasi bilan bog'liq jarayonini qayta ko'rib chiqishni taqozo etmoqda.

Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nixoyatda zarurdir.

O'zbekiston Respublikamiz Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimizga, tarixiy an'analarimizga umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruxida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning xal qiluvchi omilidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Ushbu konseptsiya ham xudi shu maqsadda, shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yo'naltirilgan.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaviy ishlar xuquq – tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, davlat va nodavlat jamg'armalar, qo'mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy ehtiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilish zarur.

Tarbiyaning bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy – tarixiy an'analarga, urfg'odatlari hamda umumbashariy qadriyatlarga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etish.

Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoni rivojlanishini, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

Buning uchun:

- yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi xissini uyg'otish;

- o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy madaniy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stiribg'boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;

- har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish. Inson faoliyatini turli soxalarda joriy qilib ko'rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llabg'quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;

- insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish, muomala odobi kabi tarbiya vositalari keng qo'llanishi lozim;

- vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat – muloqotni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga xurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog'iga, Gerbiga, Madxiyasiga, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;

- qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat xislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoiylilik, ekologik ta'lim tarbiya,

- mustaqil davlatimiz – O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish. Uning tinchliksevar, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkorag'ochiq tashqi siyosatiga o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to'g'ri tushuntirmoq kerak;

- turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondoshish fazilatlarni shakllantirish;

- sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila soxibi bo'lish istagini shakllantirish;

- yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga ergatish.

Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagicha bo'lishi lozim:

- tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsni oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir, yosh yigitg'qizning betakror va o'ziga xosligini xurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e'tiborga olish;

- yoshlarda istak va imkoniyat muvofiqligi tuyg'usini qaror toptirish;

- milliylikning o'ziga xos an'analari va vositalariga tayanish;

- shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o'quvchilar o'rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e'tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo'lish.

Amalda tarbiyaviy jarayon yaxlit va uzluksiz ishiga va turli yoshdagi, bolalarni qamrab olishga alohida ahamiyat berish lozim⁴.

O'smir yigit va qizlar nafaqat bo'lg'usi katta hayotga tayyorgarlik ko'radilar, balki ana shu haqiqiy hayot bilan yashaydilar.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar o'quvchilarning qiziqishi, istaklari, xoxish va extiyojlariga suyangan holda ularning darsdan bo'sh vaqtlarida

⁴ Nosirho'jayev S.N va boshqalar. Ma'naviyat asoslari. Toshkent 2005.

o'quv'garbiya jarayonini to'ldiradi. U o'quvchilarning ijodiy qobiiyatlarini, tashabbuskorligini oshirishga imkoniyat yaratadi. Sinf dan tashqari ishlarning o'ziga xosligi shundaki, to'garak, klub dasturlarining rang-barangligi, ular mazmunidagi yangiliklar o'smirg'yigitg'qizlarning shaxs sifatida shakllanishlari uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

«Sinf dan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar» konsepsiyasi xalq ta'limi vazirligi tomonidan 1993 yili tasdiqlangan edi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX-sessiyasida qabul qilingan yangi «Ta'lim to'g'risida»gi Qonunlari, Respublikamizda ma'naviyatga alohida e'tibor berilayotganligidan dalolat beradi. Xukumat va vazirlik qarorlarini hayotga tadbiiq etish, ta'lim soxasini tubdan islox qilish maqsadida mazkur konsepsiyani qayta ishlashga to'g'ri keldi. Yangi taxrirdagi konsepsiyani Qori Niyoziiy nomidagi O'zTFITI olimlari guruhi, Respublika Ta'lim markazi mutaxasislari va xalq ta'limi vazirligi xodimlari tomonidan tayyorlandi.

Konsepsiyani tayyorlashda xalq ta'limi xodimlari, keng jamoatchilik fikrlari inobatga olindi.

Fuqarolik faoliyati o'z davlati oldidagi huquq va burchlarini tan olishni – jamiyat belgilagan yashash va axloq me'yorlariga ongli rioya etishni, mehnat va jamoada faollikni, ma'navii yetuklikni barqaror etadi:

-isloxlarning taqdiri va samarasi uchun javobgar, yurtimizning ertangi kuni va istiqboli uchun fidoyi shaxslarni shakllantirish borasida ustivor davlat siyosati yurituvchi;

- siyosii onglilik va ijtimoiy faollik, ya'ni davlatning ichki va xalqaro siyosatini tushunish va idrok qilish. Vatanparvarlik va baynalminallikni his etish, ijtimoiyg'siyosii hayotda faol qatnashishga shay turish;

- xalq davlat oldidagi fuqarolik burchi, ya'ni qonunchilik tamoyillarini, o'zining Vatan, mahalla, oila oldidagi huquq va burchlarini bilishi, ularga qat'i amal qilishi. Qonunchilikning buzulishiga murosasiz munosabatda bo'lish;

- shaxsning ma'navii, axloqii sifatlarini tarbiyalash;

- jamiyatda yuksak ma'navii fazilatlarni kamol toptirish, shakllanayotgan millii mafkurani o'quvchi – yoshlar ongiga mukammal yetkazish;

- kishilarni o'z-o'zini chuqur anglashini, mustaqillikning mohiyatini tobora teran tushunishini va uning qadriga yetishi milliy tafakkur takomillashuvini, tarixiy hurlik, mustaqillik ruhining uyg'onishini ta'minlash, ma'naviyat sohasida siyosatimizning asosiy maqsadiga aylanishini tushuntirish.

Xozirgi paytda axloqiy va ma'naviy jixatdan tarbiyaviy ishlarnig' o'smirlar orasida kuchaytirish zarur. Axloqi yo'q, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. Shuning uchun axloqiy tarbiya shaxsning har tomonlama va erkin shakllanishida asosiy o'rin egallaydi.

Maktab va maktabdan tashqari ta'lim muassasalari tarbiyachilari jamoasi oldida doimo o'quvchilarga umuminsoniy axloq qoidalari asosida hayot kechirishni o'rgatishdek muhim vazifa turadi.

Fanni o'rganishga muhabbat uyg'otish, bilimga tashnalik fazilatlarini axloqiy tarbiyaning ajralmas tarkibiy qismidir. Bolalarning o'qishdagi muvaffaqiyatidan uning guruxidagi o'rni aniqlanadi, atrofdagilarning u bilan munosabati belgilanadi, o'qishdagi muvoffaqiyat-bolaning axloqiy tarbiyasini yuvori darajaga ko'taradi.

O'quvchilar qalbiga yuksak ma'naviyatlilikni shakllantirishda kitob va kitobxolikning axamiyati beqiyosligini tushuntirish zarur.

Tarbiya – bu insonni ijtimoiy tajribalar bilan, uning barcha shakllarida – bilim, xis-hayajon, estetika, odob-axloq qoidalari bilan tanishtirish va individning iski o'ziga xos jihatlarini, imkoniyatlari va layoqatlarini rivojlantirish bo'yicha faoliyat xisoblanadi.

Mana shu tarbiyaning asosiy manbaig' shaxslar bo'lib qoladig'bu jamiyat va individning o'zidir. Tarbiyalanayotgan shaxs maqsadlari va ijtimoiylik nisbatlari muammosi, tarbiya nazariyasida esa markaziy muammo bo'lib, shaxs jamiyatidan tashqarida yuzaga kelmaydigan jonzot xisoblanadi. Jamiyat o'z navbatida shaxslardan tashkil topadi. Jamiyat shaxslar o'zaro munosabatlari jarayoni natijasi va jarayonidan iborat. Shaxssiz jamiyat yo'q va demak, jamiyat ularga bog'liq bo'ladi. Ba'zida shaxsni mikrosotsitsi, jamiyatni esa makrosotsitsi deb, ataydilar. Bu bilan materiya harakatlanishi ijtimoiy shakli, ikki asosiy tarkibiy qismi to'g'risida gap borayotganligini ta'kidlaydilar. Shaxs va jamiyatning yaqin bir-biriga bog'liqligi turli tomonlardan qaralishi mumkin. Biroq, shaxs va jamiyat bir

narsa va bir xilda o'xshash bo'lishi nimasi bilan farq qiladi? Uning farqi hajmiga aloqador bo'ladimi: kichik shaxs - katta jamiyat yoki yana boshqa muhim farqlari bormi? – degan savollarga javob berish uchun o'zaro bog'liqlik. Mana shu doiradan chiqishi muhim. Mana shu ijtimoiy sub`ektlar funksiyalarining o'ziga xosligi nimalardan iborat.

Jamiyat - bu qadriyatlar o'z maktabini yaratadigan, o'zining siqilishib qolishiga har qanday sub`ektning xizmat qilishga majbur etishga intiluvchi, o'zining mavjudligini saqlab qolishi uchun shaxsni yutib yuborishga qodir, o'zini harakatlantiruvchi ijtimoiy birlikdir. Shu bilan bir vaqtda, jamiyat insonlar to'plagan madaniyatni saqlab qolish va odamga yetkazish usuli demakdir. U odamlar to'plami umumiylik va ularning munosablari natijasi ifodasi hisoblanadi.

Shaxs va jamiyat ijtimoiy hayotning ikki asosiy sub`ekti sifatida ishtirok etadilar. Hatto eng qulay ijtimoiy sharoitlarda ham, ular birlashmaydilar va ular o'rtasidagi farq kamaymaydi. Ma'lum sharoitlarla ular birg'birlikka qaramag'qarshi turishlari mumkin.

Tarbiya – jamiyatdagi hodisa sifatida o'sib kelayotgan avlodning jamiyat hayotida turmushi, ijtimoiy ishlab chiqarish faoliyati, ijodi va ma'naviyatida ishtirok etishi murakkab qaramag'qarshi ijtimoiy –tarixiy jarayon hisoblanadi. Ularning odam bo'lishlari, rivojlanishlari, shaxsiyliklari va individualliklari, jamiyatning ishlab chiqarish kuchlari muhim elementlari shaxsiy baxtlarini yaratuvchilari bo'lib ishtirok etadilar. U ijtimoiy taraqqiyot va avlodlar ketma-ketligini ta'minlaydi⁵.

Tarbiya – ijtimoiy hodisa sifatida uning mohiyatini ifoda etuvchi quyidagi asosiy belgilari bilan ifodalanadi:

1. Tarbiya o'sib kelayotgan avlodni ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish sharoitlariga jalb etish, ular bilan eskirayotgan va hayotdan kelib chiqayotganligini almashtirish amaliy ehtiyojidan kelib chiqqan. Natijada, bolalar katta bo'ladilar, o'z hayotlari va mehnat qobiliyatini yo'qotayotgan katta avlod hayotini ta'minlaydilar.
2. Tarbiya – doimiy, zarur va umumiy kategoriya. U insoniyat jamiyati yuzaga

⁵ O'quv qo'llanma "Tarbiyaviy ish metodikasi" T.: «O'qituvchi» 1991.

kelishi. Bilan birga paydo bo'ladi va jamiyatning o'zi yashar ekan, u ham mavjud. U jamiyatning mavjudligi va davomiyligi va uning ishlab chiqarish kuchlarini tayyorlash va insonni rivojlantirishning ta'minlashning muhim vositasi hisoblanganligi uchun tarbiya zarurdir. Unda qonuniy o'zaro bog'liqliklari bu hodisaning boshqa ijtimoiy hodisalar bilan o'zaro bog'liqliklari aks ettiriladi. Tarbiya – o'qitishning bir qismi sifatida ta'limni ham o'z ichiga oladi.

Tarbiya tizimining rivojlanishida aks ettiriladi, ya'ni jamiyatlashtirish, o'zini tarbiyalash va kasbiy ta'sir ko'rsatishda o'z ifodasini topadi. Bu jarayonlar uchta asosiy sub'ektlar shaxsi bilan shakllantiruvchi – jamiyat, individning o'zi va pedagogning bio ob'ekt bilan o'zaro munosabatlari davomida amalga oshiriladi.

Jamiyat to'g'risida to'xtalib o'tamiz. "Ijtimoiylashtirish" tushunchasi tarbiya nazariyasida juda keng foydalaniladi. Tadqiqotchilar uning qadriyatli ko'rsatmalari va tarbiyalash tamoyillariga qarab tushuntiradilar. hatto, bu borada ma'lum an'analar yuzaga kelgan, katta ilmiy material to'plangan. Sotsiologik va psixologik adabiyotlarda ijtimoiylashtirish juda faol tahlil qilinadi. Shu bilan birga ijtimoiy hayotda jamiyat va shaxs rolini talqin qilish, albatta, qaramag'qarshi bo'lgan ijtimoiylashtirish konsepsiyasining shakllanishiga olib keladi. Qattiq ijtimoiylashtirish deb, ataluvchi konsepsiya tarafdorlari, funktsional maktab vakillari bu jarayonni shaxsni ijtimoiy tizimga to'la jalb etish sifatida belgilaydilar.

Sotsiologiya ijtimoiylashtirishni taxlil qilishda, "moslashish", "qulaylik", "tenglik" muvozanati tushunchalariga tayanadi.

Ularning tadqiqotlaridagi asosiy vazifa – individlarni ijtimoiy muhitga moslashtirish hisoblanadi.

Bu konsepsiyaga "yangi insonparvarlashtirish" tarafdorlari qarshi. Ular ijtimoiylashtirishda o'z qobiliyatlari va layoqatlarini yaratuvchi shaxsni hamda shaxsning o'zini amalga oshirish va o'zini namoyon etishga to'sqinlik qilayotgan elementlarni tanqidiy yengishini ko'radilar. Mentlarni tanqidiy yengishini ko'radilar.

Biroq, birinchi holatda ma'lum tarzda ishlab chiqilgan muhitga ta'sir ko'rsatish to'g'risida gap yuritilayotgan bo'lsa, ikkinchi holatda, "ijtimoiylashtirish

va shaxs” tushunchalarini to’la adashtirish sodir bo’lmoqda. Ta’lim tizimidagi ijtimoiylashtirish deyarli chiqarib tashlashga, uning o’zini tarbiyalash bilan almashtirishga, tarbiyachi kasbiyligi esa shakllanayotgan shaxsning mustaqilligini ta’minlash vazifasini yuklatishga harakat qilinmoqda. Birinchi nuqtai – nazar ijtimoiy hayot taraqqiy etgan asoslarini qayta ishlab chiqarish muammosiga e’tiborni kuchaytiradi, ikkinchisi esa madaniy – ijodkorlikni shaxs ijodiy qobiliyatlariga erkinlik berishga qaratiladi.

Ma’lumki, bu ikki qarama-qarshi nuqtai-nazardan birortasi ham amaliy hollarda tarbiya amaliyotini takomillashtirishga olib kelmaydi. To’g’ri shaxs ikki dunyosini ijtimoiy manfaatlar bilan to’la bog’lab qo’yishga yo’l qo’yish mumkin emas. Lekin, baribir jamiyat insonga ta’sir ko’rsatadi va ta’sir ko’rsatishni hisobga olmay bo’lmaydi. Ijtimoiylashtirish – muhit, jamiyatning shaxsga ta’siri demakdir. Shu bilan birga ta’sir ko’rsatish, bu yetarli bo’lmasa ham shaxsning tashkil topishida juda zarur hisoblanadi.

Biz ijtimoiylashtirish to’g’risida gapirar ekanmiz, odam ham, guruh ham, biomuhit va kosmos ham inson ko’ziga ko’rinib va uning qalbida aks etib, maqsadga muvofiq bo’lmasa ham, tasodifan insonga ta’sir ko’rsatib shaxsni shakllantiradi. haqiqatda ko’zga ko’rinmas ta’sir ko’rsatish, nazorat qilib bo’lmaydigan jarayon. Muhitning u yoki bu elementlari qason, qanday ketma-ketlikda, qanday nisbatlarda shaxs bilan munosabatlarga kirishishini bilib bo’lmaydi. hatto ularning har birini aniqlash ham mumkin emas. Biroq muhit shaxs uchun shakllanib bo’lgan, dunyoqarashiga yod bo’lgan faoliyat sharoitlari va tamoyillarini majbur qilishda quvonchni xis etish qiyin bo’ladi. Agarda dunyoqarashi shakllanmagan bo’lsa, unda ham odamdan noqulay muhit ta’siridan qoniqishni talab qilib bo’lmaydi. Odam o’zi o’z hayotini tashkil etadi, u nima qilishini o’zi tanlaydi: dunyoga qarab xursand bo’ladi, agarda unda o’z hayotini ko’rsa.

Mehnat qadriyatlari – tabiat bilan uyg’unlikda yashash, undan ibrat olish, uning go‘zalliklaridan zavqlanish va tabiat qo‘ynida mehnat qilish kabilarni tashkil etadi. Mehnat qadriyatlari – mehnat madaniyatining barcha elementlarini qamrab oladi. Har bir yosh avlod hayotga qadam qo‘yar ekan, o‘z ajdodlaridan faqat

mehnat vositalarigina emas balki mehnat madaniyatini ham meros qilib oladi. Shuning uchun ham mehnat qadriyatlari o'quvchilarning qobiliyatlari, imkoniyatlari va haqiqiy kuchlarini namoyon etish va takomillashtirish imkoniyatini beradi. Mehnat qadriyatlarida hunarmandchilik, kasb-hunar egallash muhim o'rin tutadi. Bunda zardo'zlik, yo'rmado'zlik, bo'zchilik, yog'och o'ymakorligi, zargarlik, gilamchilik, kashtado'zlik, muqovasozlik, naqqoshlik, pichoqchilik, o'ymakorlik kabi hunarlarni o'rganish – mehnat qadriyatlarining negizini tashkil etadi.

I bob yuzasidan xulosalar.

Xozirgi paytda axloqiy va ma'naviy jixatdan tarbiyaviy ishlarning o'smirlar orasida kuchaytirish zarur. Axloqi yo'q, inson ongli ijtimoiy shaxs bo'la olmaydi. Shuning uchun axloqiy tarbiya shaxsning har tomonlama va erkin shakllanishida asosiy o'rin egallaydi. Hozirgi paytda, fan va madaniyatning eng so'nggi yutuqlari asosida kelajagimiz bo'lgan yosh avlodni hayotga tayyorlashning samarali shakl va uslublarini izlash nixoyatda zarurdir.

O'zbekiston Respublikamiz Prezidentining «Ma'naviyat va ma'rifat jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida»gi farmonida ko'rsatilganidek, jamiyatda yuksak ma'naviy fazilatlarni kamol toptirish, milliy mafkurani shakllantirish, yoshlarni boy madaniy merosimizga, tarixiy an'analarimizga umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, Vatanga muhabbat, istiqlol g'oyalariga sadoqat ruxida tarbiyalash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlarning xal qiluvchi omilidir.

Sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarning samaradorligini oshirish avvalo komil insonni shakllantirishning eng zamonaviy va qulay yo'nalishlarini topib joriy etishga bog'liq. Ushbu konsepsiya ham xudi shu maqsadda, shaxs kamoloti bosqichlarini belgilab olishga yo'naltirilgan.

Tarbiyaviy ishlarni davr talabiga javob beradigan holga keltirish uchun tarbiyaning asosi bo'lgan barcha g'oyalar qaytadan ko'rib chiqilishi, asosiy e'tibor

bola shaxsiga qaratilishi, yillar davomida to'plangan ijobiy tajribadan unumli foydalanish zarurligini taqozo etadi.

Tarbiyaviy ishlar xuquq – tartibot organlari, ijodiy uyushmalar, davlat va nodavlat jamg'armalar, qo'mitalar va tashkilotlar bilan hamkorlikda olib boriladi.

Inson shaxsining kamol topishi juda murakkab va uzluksiz jarayon davomida shakllanadi. Uning tarbiyasiga ota-onasi, maktab, mahalla, do'stlari, jamoat tashkilotlari, atrof-muhit, ommaviy axborot vositalari, san'at, adabiyot, tabiat va hokazolar bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Yuqoridagi barcha hayotiy extiyojlarni vujudga keltirishda o'zaro hamkorlikning ta'sir doirasi orqali shaxsni tarbiyalash va tarbiyaning birligini ta'minlagan holda, uni shaxs sifatida shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan muhitdan himoya qilish zarur.

Tarbiyaning bosh maqsadi – yosh avlodni ma'naviy – axloqiy tarbiyalashda xalqning boy milliy, ma'naviy – tarixiy an'analariga, urf-odatlariga hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalarni ishlab chiqib amalga joriy etish hozirgi kun talabidir.

II bob. MEHNATSEVARLIK VA KASB-HUNAR EGALLASHGA OID TUSHUNTIRISH ISHLARINI OLIB BORISHNING PEDAGOGIK SHART-SHAROITLARI.

2.1 Tarbiya berish orqali o'quvchilarning ijtimoiy hayot va ishlab chiqarish jarayonlariga jalb etish

Umumiy ta'lim va hunar maktabi islohoti yosh avlodni xalqning bunyodkorlik faoliyatiga ancha erta va ongli ravishda qo'shishga, yagona mehnat poletexnika maktabi har xil prinsiplarni izchil amalga oshirishga, o'quvchilarda ijtimoiy foydali mehnatga muhabbat va odatni tarbiyalashga, ularning g'oyaviy bilim darajasini kengaytirishga yuksak fazilatlarni shakllantirishga qaratilgan.

Kasb-xunar kolleji islohotini amalga oshirish ta'limni unumli mehnat bilan qo'shish asosida kollej o'quvchilarining mehnat tarbiyasini va ularni kasbga yo'naltirishni tubdan yaxshilash, yoshlarning umumiy o'rta ta'limni umumiy kasb ta'limi bilan to'ldirish imkonini beradi.

Kasbga yo'naltirish – yoshlarni erkin va mustaqil kasb tanlashga ilmiy amaliy jihatdan tayyorlash sistemasidir. U har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini ham, davlat manfaatlari yo'lida mehnat resurslarini to'laqonli taqsimlash zarurligini ham hisobga olishi kerak. Kasbga yo'naltirish tajribasi yoshlar ijtimoiy yetukligini ancha yuksak darajasini ta'sinlashi, unda umumiy ish yo'lida faol mehnat qilish qobiliyati va intilishini tarbiyalashni talab etadi. Kollej o'quvchilarini tanlagan kasbga tayyorlash jarayonida ularni bilimlar bilan ijtimoiy, unumli mehnatga va ijtimoiy munosabatlarga faol qo'shilib kelishiga intilish bilan qurollashtirish muhimdir.

Kasbga yo'naltirishning maqsadi yosh avlodni ongli kasb tanlashga tayyorlashdir. Buning uchun: o'quvchilarda xulq'atvor va faoliyatning ijtimoiy axamiyatiga molik ruxiy regulyatorni shakllantirish; mehnatning har xil turlariga hurmat bilan – qarashni tarbiyalash; kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashda shaxsiy pozitsiyani faollashtirish, ya'ni o'quvchini ongli kasb tanlashga tayyorlash maqsadida uning shaxsiga tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi yondoshuvni amalga

oshirish zarur.

Kasbga yo'naltirish kompleks, ko'p jihatli muammo bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik – pedagogik, tibbiy – fiziologik jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu jihatlarning birchasi bir vaqtda, o'zaro bog'liq holda amal qilishi kerak. Kasbga yo'naltirishning ijtimoiy jihati o'quvchining bilimlar, normalar, qadriyatlarining muayyan sistemasini o'zlashtirish jarayonini nazarda tutadi, ular o'quvchiga jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida ijtimoiy kasb faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Shuning uchun o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni dastavval jamiyatning ijtimoiy buyurmasi, shuningdek mamlakat uchun bo'lajak kadrlar tayyorlashni oldindan aytib berish, o'quvchilarda shaxsiy ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish birligi nuqtai nazaridan hal etil kerak. Iqtisodiy jihatg' tobora ko'proq qismini yoshlar tashkil etadigan mavjud va istiqboldagi mehnat rusurslaridan unumli foydalanish va ularni oqilona taqsimlashdir. Psixologik – pedagogik jihat – o'quvchilarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlarini aniqlash va shakllantirish, iste'dodini izlashda, shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga, uning potensial imkoniyatlariga mos keladigan kasbni tanlashida yordam berish; maktab o'quvchilarining kasbiy jihatdan o'z-o'zini aniqlashini samarali boshqarish yo'llari va shartlarini belgilashdir. Tabiiy fiziologik jihat kishining sog'ligi va u yoki bu kasb faoliyatini bajarish uchun zarur bo'lgan alohida fiziologik vazifalari, psixofiziologik sifatlariga nasbatan maxsus talablar qo'yadi.

Kasb maorifi (kasb axboroti), o'quvchilarning amaliy faoliyatini ijtimoiy foydali, unumli mehnatning turli xillariga qo'shish, kasbga doir maslaxat, kasbga moslashuv kasbga yo'naltirish sistemasining asosiy tarkibiy fismlari, boshqacha qilib aytganda, kasbga yo'naltirish ishining bosqichlari hisoblanadi.

Kasb maorifi – o'quvchilarni mehnatning xilma xil turlari, kasblarning o'ziga xos xususiyatlari, ularning rivojlanish tamoyillari, mamlakat va maxsus iqtisodiy rayon xalq xo'jaligining kadrlarga bo'lgan extiyojlari bilan tanishtirishdir.

Bu jarayonda o'quvchilar o'zlariga kasblar olamida yo'l topish imkonini beradigan bilimlarni egallaydilar va tanlangan ob'ektlarga ijtimoiy baho berish asosida asosli qaror qabul qiladilar. Kasb tanlashda nozikchilikka yo'l qo'ymaslik

kerak, chunki noto'g'ri tanlangan kasb yoshlarni ish qobiliyatini pasaytirib ishsizlikka olib kelishi mumkin. Bu borada ota-onalar, pedagoglar nihoyatda o'quvchilarni qiziqishi, o'zlashtirishini hisobga olib ularga to'g'ri va do'stona malahatlar berib borishlari kerak. O'quvchilar egallaydigan mehnat olamidagi bilimlarni bir sistemaga solish kerak. Mazkur yondoshuv o'quvchilarga u yoki bu faoliyat soxasiga kiruvchi kasblarni mustaqil tahlil etish, kasbdagi eng muhim narsalarni ajratib ko'rsatuvchi, mehnat mavzui, maqsadlari, qarorlari va sharoitlarini, muayyan tipdagi kasblarning odam oldiga qo'yadigan talablarini tushunib yetish kerak. Kasb tanlashda o'quvchilarning yosh xususiyatlarini xisobga olib o'tkazilishi lozim.

O'quvchilarning ijtimoiy foydali, unumli mehnatning xilma-xil turlarida o'z kuchini amaliy sinab ko'rishini faollashtirish ham kasbga yo'naltirishning muhim vazifasidir, chunki mehnat shaxsni shakllantirishning asosiy va xal qiluvchi omilidir.

O'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish – bu tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning birinchi, zarur, lekin yetarli bo'lmagan qismidir: o'quvchi ishlab chiqarishda tanlangan kasbni tezroq egallashi uchun ijodiy va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lishi, unga maktabda dastlabki “kuchni sinab ko'rish” imkoniyatini berish muhimdir⁶.

Ishlarni to'g'ri tashkil etib, ularning xususiyati va mazmunini to'g'ri belgilaganda, bu shakllarning hammasi o'quvchilarning kasbiy jihatdan o'zg'o'zini anglashida g'oyat samarali bo'ladi.

Kasbga doir maslaxatda eng muhimi –kasb tanlashning keng g'oyaviy va ijtimoiy sabablarini shakllantirishdir. Shaxsiy jixatdan bu o'quvchilarda ijtimoiy burchni yuksak darajada anglash, mehnatsevarlik, umumiy ish rovida mehnat qilishga intilish kabi fazilatlarini tarbiyalashdir. Kasbga doir maslaxat jarayonida o'quvchining mazkur kasbni tanlash barqarorligi darajasiga ishonch xosil qilish ham muhimdir. Bu tanlash tasodifiy, o'ylanmagan bo'lishi ham mumkin. Shuning uchun kasbga doir maslaxatning vazifasi o'quvchining o'ziga xos psixofiziologik

⁶ Jo'raev A.J. “Tarbiyaviy darslarni o'tish”. T.: «O'qituvchi” 1994.

va shaxsiy xususiyatlari u yoki bu kasbning o'ziga xos talablariga mos kelishini belgilashdan iboratdir. U muayyan kasbni eng muhim ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarni eng ko'p darajada xisobga olgan holda tanlashni ta'minlaydi.

Kasbga doir maslaxat odatda o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, o'quvchilarda kasb tanlash chog'ida vujudga keladigan qiyinchiliklardan kelib chiqadi. Tabiiyki, yakka tartibdagi maslahat bir o'quvchiga ham kerak bo'lavermaydi. Lekin bunday maslaxat zarur bo'lgan o'quvchi bilan jiddiy ravishda alohida ish olib borish kerak. Ma'lumki, yakka tartibda o'tkaziladigan kasbga doir maslaxatga kamida 50 % o'quvchi muhtoj bo'ladi. Ular qatoriga:

- 1) U yoki bu sabab bilan mustaqil kasb tanlay olmagan o'quvchilar;
- 2) Ota – onalari bilan ziddiyat vujudga kelgan o'quvchilar;
- 3) O'zlari tanlagan kasb yo'lining to'g'riligini tasdiqlashni istaydigan o'quvchilar;
- 4) Rivojlanishda va hatti-harakatida og'ishlar bo'lgan o'quvchilar kiradi.

Kasbga doir maslaxat ma'lumot berishg'axborot tusida bo'lib, o'quvchilarning mehnat va kasb faoliyati to'g'risidagi bilimlarini kengaytirishga, maxsus ma'lumot olish va ishga joylashish imkoniyatlari xususidagi ma'lumotlarni xabar qilishga qaratilgan bo'lishi mumkin.

Psixologik-pedagogik maslaxat o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish negizida unga eng mos keladigan faoliyat soxasini tanlashga yordam berishni shaxsning kasb tanlashga tayyorgarlik ko'rishida o'z faoliyatini faollashtirishni nazarda tutadi. Bunday maslaxat berish uchun o'quvchini o'qish va sinfdan tashqari ishlar jarayonida kuzatish, kasblarni, "O'quv yurtlarini yaxshi bilish asos bo'ladi".

Tibbiy –kasbga doir maslaxatni V sinfdan boshlab o'tkazish kerak. Chunki xuddi shu yoshda barqaror qiziqishlar vujudga kelib, ular keyinchalik mustaxkamlanganda kasb qiziqishlariga aylanishi mumkin bo'lgan nuqsonlar bo'lsa, uni bu haqda oldindan ogohlantirib qo'yish ma'qulroqdir. To'g'ri, buni vrach ham qilishi mumkin, lekin o'quvchi ayni vaqtda o'quvchiga kasblar olami

qanchalik keng va xilma-xilligini, sog'lig'idagi nuqsonga qaramay, u har doim ko'ngliga yoqadigan ishni topa olishini ko'rsatib berishi kerak.

Kasbga moslashuv. Ijtimoiy-psixologik tadqiqotlar kasbga moslashuv ijtimoiy-psixologik moslashuv bilan birgalikda namoyon bo'lishini tasdiqlamoqda. Kasbga moslashuv ijtimoiy va shaxsiy sabablar mos kelganda aniq ishlab chiqarish faoliyatiga moyillikning saqlanib qolishi va yanada rivojlanishi kabi belgilar bilan harakterlanadi, u kasbga qiziqishga, mehnat mazmuniga, oilaning va atrofdagi ishlab chiqarishning ta'siriga bog'liq bo'ladi. Kasbga moslashuv o'z tabiatiga ko'ra ziddiyatli jarayon bo'lib, ishlab chiqarish olg'a suradigan bilish vazifalari, muomala shakllari va shaxsiy tajriba, texnik bilimlar, ko'nikmalar va munosabat shakllari, ya'ni o'smir ishlab chiqarishga nimalar bilan kelgan bo'lsa, o'sha narsalar o'rtasidagi ziddiyatlar uning harakatlantiruvchi kuchli bo'ladi.

Ishlab chiqarishdagi kasbga moslashuvga, barqaror kasb tanlashga tayyorgarlik maktabda boshlanadi, lekin bu yerda tugamaydi, chunki bu vazifa maktab va ishlab chiqaruvchining birgalikdagi kuch-g'ayrati bilan hal etilishi kerak.

Kasb tanlash ishlarining barcha bosqichlari doimiy aloqada va o'zaro bog'liq bo'ladi. Jumladan maslaxat berishning turli xillariga o'tishda kasb mahorati kuchayadi. Kasbga moslashuv kasb maorifi bilan ham, kasbga doir maslahat, kuchlarni amalda sinab ko'rish bilan ham o'zaro bog'liq bo'ladi. Shu bilan birga u butun kasbga yo'naltirish ishida kompleks yondoshish uchun asos bo'lib xizmat qilishi kerak.

Kasbga yo'naltirish ishi – butun ta'lim tarbiya jarayonining ajralmas qismi bo'lib, u darslarda bo'lganidek, sinfdan va maktabdan tashqari faoliyatda ham turli usullar bilan amalga oshiriladi. Bu ishga rahbarlik qilish, uni nazorat etish va muvofiqlashtirish maktab direktori rahbarlik qiladigan maktab kasbga yo'naltirish kengashi tomonidan ta'minlanadi. Kengash tarkibiga ta'lim – tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari, sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlar tashkilotchisi, sinf rahbarlari, maktab va otaliq tashkiloti va boshqalar kiradi.

Maktab o'quvchilarini kasbga yo'naltirishni boshqarish sistemasida rejalashtirish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. U ma'lum yoshdagi o'quvchilar tarkibiga nisbatan kasbga yo'naltirish ta'sirining izchilligi va muntazamliligini, aloqadorli va uzluksizligini ta'minlaydi, bu ta'sirning ondag'sonda bo'lishini, stixiyaliligini va tasodifiyligini istisno etadi, maktab, oila va jamoatchilikning o'quvchilarga ta'sir ko'rsatishi bir xilda bo'lishini ta'minlaydi. Kasbga yo'naltirish ishini rejalashtirish asosida tarbiya prinsipi tarbiyaning hayot bilan bog'liqligi, jamoada, mehnatda va mehnat uchun tarbiyalash yo'lga qo'yilgan bo'lishi kerak. Rejalashtirish kasbga yo'naltirishdan iborat yaxlit jarayonni o'zaro bog'langan bosqichlarga bo'lish, o'quvchilar faoliyatining har bir yosh uchun maqsadga muvofiq bo'lgan turlarini nazarda tutish imkonini beradi.

O'quvchini kasb tanlashga tayyorlash ishini tashkil etish bolaning har bir yosh bosqichidagi rivojlanishining o'ziga xosligini hisobga oladigan va uning izchilligini ta'minlaydigan muayyan sistemada amalga oshiriladi.

Kasbga yo'naltirish jarayonida o'quvchi shaxsining kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashi kichik yoshdan boshlab o'zaro bog'langan bir qancha bosqichlardan o'tadi. Maktab o'quvchilarining kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashni shakllantirishni cho'zib yuborish va bitirish imtixonlari davrigacha kechiktirishga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Shaxsda yorqin ifodalangan va nisbatan barqaror qiziqishlarning yo'qligi odatda umuman yaxshi yetilmagan xulq-atvor bilan uyg'unlashib ketadi.

Kasbga erta yo'naltirish shaxsni mehnat kuch-qudrati sarflashga tayyorlashdan, mehnatning ijtimoiy sabablarini, boshqalarga foyda keltirish extiyojini, o'z kuchini qo'yilgan maqsadlarga erishish yo'lida sarflash qobiliyatini shakllantirishdan iboratdir.

O'qituvchining vazifasi o'quvchilar bilan olib boriladigan ishlarga izchil va maqsadga muvofiq xususiyat bag'ishlashdir. Shu maqsadda o'qituvchi o'smirlarning kasb maorifi rejasini tuzadi, o'quvchi faollar bilan birgalikda ekskursiyalar, yurushlar natijalariga asosan to'plangan materiallardan ko'rgazmalar

uyushtiradi.

O'quvchilar tanlayotgan kasbiga doir amaliy malaka va ko'nikmalarni egallash maqsadida o'quv ustaxonalarida, to'garaklarda, qiziqishlar bo'yicha guruhlarda, tashkil etilgan "Kuchni sinab ko'rish"ga qo'shiladilar; ayni vaqtda o'quvchilarni mehnat ta'lim yo'nalishini tanlashga o'quv ishlab chiqarish markazlar tayyorlaydi.

Ayni vaqtda o'quvchilarni o'quvg'ishlab chiqarish markazlarida u tanlayotgan kelajakdagi kasb faoliyatiga mos keladigan mehnat ta'limi ixtisosini tanlashga e'tibor beriladi.

Umuman, ma'naviyat – ma'rifat va madaniyatning asosiy belgilaridan biri – savodxonlik ham ilm bo'lib, bular ma'naviy boyligimizning poydevori hisoblanadi. Hozirgi paytda O'zbekiston axolisining 99,06 % savodli.

Kishilarga bilim berish jarayonining kichik qonuniyatlarini aniqlab beruvchi inson faoliyati turiga ma'naviyat ilmi (didaltika) deyiladi.

Ma'naviyat ilmi aniqlangan qonuniyatlar aossida ta'lim-tarbiyani amalga oshirish uslublarini yaratuvchi ilm-fan turiga uslubiyat (metodika) deyiladi. Ma'rifat ilmi aniqlangan qonuniyatlar va shu hamda tarbiya berish usullarini ma'rifiy jarayonda qo'llash ma'rifat (pedagogika) fani tomonidan o'rgatiladi.

Bilim olish va uning afzalliklari haqida Sharqda qadim-qadimdan fikrlar bildirib kelingan. Har bir davrda bu fikrlar yangi – yangi qarash va g'oyalar bilan boyitib kelinmoqda. Chunki, bilish falsafaning ham asosiy muammolaridan biri sanaladi. Zero, bilim olish va o'z navbatida, kasb egallash shaxs ma'naviyatini yukcaltirish, jamiyatdagi o'rnini topishga yordam beradi.

O'quvchilarni ongli kasb tanlashga tayyorlash umumiy ta'lim maktabining muhim vazifasidir. Bu tayyorgarlik ikki omilni:

- 1) jamiyatni kadrlarga bo'lgan extiyojini;
- 2) yoshlarning shaxsiy qobiliyatini hisobga olib amalga oshiriladi.

Ikkinchisi, shaxsning kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashi bilan bog'liqdir.

O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash: ular e'tiborini targ'ib qilinayotgan

kasblarga jalb etishni, mehnatning ilmiy asoslari bilan chuqur tanishishni yo'lga qo'yishni, ularni faqat zarur malaka va ko'nikmalari egallashgina emas, shu bilan birga shaxsni, qobiliyatlarini rivojlantirishni ta'minlovchi faoliyatga jalb etishni ham o'z ichiga oladi.

Kasbga yo'naltirishning dastlabki bosqichida targ'ibotchilik ishiga o'quvchilarning o'zini faol jalb etish zarur. Bu shubxasiz, ularning ishlab chiqarish va undagi kasblar bilan batafsil tanishishlari uchun zamin yaratadi.

Maktabda kasblarni targ'ib qilish vositalari sifatida kasb tanlashga bag'ishlangan leksiyalar, suxbatlar, konfrensiyalar, uchrashuvlar, bahslar, kechalar, maktab radiosi orqali maxsus eshittirishlar uyushtirish, devoriy gazetalar chiqarish, kasbga yo'naltirish burchaklarini bezatishdan foydalaniladi. Maktab yoshlari uchun tengdoshlari – korxonalarining ishchilari va xunar texnika bilim yurtlari o'quvchilari bilan bevosita aloqalar juda foydali bo'ladi, umumiy manfaatlar, do'stona o'zaro munosabatlar ko'pincha maktab bitiruvchisi keyinchalik qo'shiladigan mehnat jamoasini tanlashini belgilab beradi. Kasb maorifida badiiy adabiyot alohida o'rin tutadi. O'quvchilarning o'qishi va muxokama qilishi uchun adabiy asarlarni tanlash kasbga yo'naltirish ishining muhim bo'limidir. O'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish bosqichi ularni mehnat faoliyatiga qo'shish bilan ham bog'liqdir.

Maktab o'quvchilari kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablarini shakllantirish uchun darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda katta imkoniyatlar mavjud. Bu ish maktab direktori, sinfdan va maktabdan tashqari ishlar tashkilotchisi, sinf rahbarlari, fan o'qituvchilari, ota-onalar, ma'rifiy-ma'daniy muassasalar xodimlari, mehnat jamoalari bilan mustaxkam hamkorlikda amalga oshiriladigan birgalikdagi kuch-g'ayratlari bilan yo'naltiriladi va u umumiy tarzda amalga oshirilishi kerak.

Darsdan tashqari ishlar tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning xilma-xil usul va shakllari bilan ajralib turadi. Kasblar to'g'risidagi, mehnat faoliyati turlari haqidagi axborot manbaiga qarab kasbga yo'naltirish shakl va usullarini shartli ravishda uch

guruhga:

Og'zaki, ko'rgazmali va amaliy shakl va usullarga bo'lish mumkin.

Tarbiyaviy ishlar davomida tarbiyalanuvchining qarashlari, hayotiy nuqtai-nazari asta-sekin tarkib topib boradi. U tarbiyalanuvchining xulq – atvori hamda tevarak-atrofdagi muhitning xilma-xil ta'sirlariga uning munosabatlarini belgilaydi. Shaxsning bu tutgan yo'li qancha aniq va izchil bo'lsa, tevarak-atrofdagi hayot sharoitlarining turlicha salbiy ta'siri shuncha kuchsiz bo'ladi.

Tarbiyaviy ish metodikasini o'rganish talabalarni, o'quvchilarni tarbiyalashning umumiy masalalarini mustaqil, ijodiy va dadil hal qilishga tayyorlashi lozim. Agar bu o'rganish talabalarning pedagogik praktikasi bilan chambarchas bog'langan bo'lsa va ularni kasbiy jihatdan o'z-o'zini tarbiyalashga undasa, ancha ijobiy natija beradi.

Kasb-xunar kolleji islohotini, amalga oshirish ta'limni unumli mehnat bilan qo'shish asosida kollej o'quvchilarining mehnat tarbiyasini va ularni kasbga yo'naltirishni tubdan yaxshilash, yoshlarning umumiy o'rta ta'limini umumiy kasb ta'limi bilan to'ldirish imkonini beradi.

Kasb-xunar kollejida – yoshlarni erkin va mustaqil kasblarni egallashlarida ilmiy-amaliy jihatdan tayyorlash sistemasidir. U har bir shaxsning o'ziga xos xususiyatlarini ham, davlat manfaatlari yo'lida mehnat resurslarini to'laqonli taqsimlash zarurligini ham hisobga olishi kerak. Kasbga yo'naltirish tajribasi yoshlar ijtimoiy yetukligining ancha yuksak darajasini ta'minlashni, unda umumiy ish yo'lida faol mehnat qilish qobiliyati va intilishini tarbiyalashni talab etadi. O'quvchilarni tanlagan kasblari bo'yicha tayyorlash jarayonida ularni bilimlar bilan ijtimoiy, unumli mehnatga va ijtimoiy munosabatlarga faol qo'shib ketishga intilish bilan qurollantirilishi muhimdir. Bu o'z navbatida umumiy ta'lim maktabidan ixtisoslashish va ishlab chiqarish tajribasi jihatlarini o'zida mujassamlashtirgan kasbga yo'naltirish shakllarini izlab topishni talab etadi.

2.2. O'quvchilarning mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda hamkorlikda ish olib borishni ahamiyati

Mehnat tarbiyasini tashkil etish jarayonida o'quvchilar dastlab ishlab chiqarish jarayonlarining ilmiy asoslari bilan tanishadilar.

Mehnat tarbiyasi maqsadga muvofiq, tizimli, izchil tashkil etiladi. Mehnat ta'limi sinf xonalari, o'quv-tajriba maydoni, mashina-traktor saroyi, o'quv-tarbiyaviy tadbirlar jarayoni, ishlab chiqarish korxonalarini va xo'jaliklarning dalalarida olib boriladi.

Natijada ma'lum qiymatga ega bo'lgan ijtimoiy-foydali mahsulotlar yaratiladi, hamda ilg'or kasb sohiblariga xos bo'lgan shaxslik fazilatlari shakllanadi.

Shu jihatdan olib qaraganda, bugungi kunda mehnat ta'limining mazmuni, maqsad va vazifalari o'zgaradi, texnologik ta'lim ustuvorlik kasb etdi, o'quvchilarni kasbga yo'naltirish tizimi yangilandi. Mehnatni ilmiy tashkil etishning birinchi darsini ham o'quvchi ta'lim jarayonida oladi.

Mehnat tarbiyasi bilan mehnat ta'limi bir-biri bilan o'zaro bog'langan. Mehnat faoliyati ma'lum bilimga ega bo'lishni talab etadi. Zero, bilim va ko'nikmalar o'quvchini mehnat faoliyatiga tayyorlaydi.

Ta'lim jarayonida olgan bilimlarini amaliyotda sinab ko'radilar, umumiy mehnat jarayonida o'quvchilarning jamoa hamda fermer xo'jaliklari, korxonalar, zavod va fabrikalarda texnik va texnologik bilimlari mustahkamlanadi, shuningdek, ular tashkilotchilik malakalariga ham ega bo'ladilar.

Sinfdan tashqari ishlar jarayonida mehnat tarbiyasi ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi.

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarning turli shakllari o'quvchining texnik ijodkorligini rivojlantiradi, u yoki bu bilim sohasida bilimga bo'lgan qiziqishini shakllantiradi. To'garaklarda o'quvchining qiziqish va qobiliyatlari namoyon bo'ladi.

O'quvchilarning to'garaklardagi faoliyati ma'lum pedagogik talablarga rioya qilganda samarali bo'ladi. Chunonchi:

- to'garak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim, ya'ni, o'quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo'lishi zarur;

- texnik ijodkorlik o'quv muassasasidagi o'quv-mehnat jarayoni bilan uzviy aloqada bo'lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta'lim va boshqalar);'

- ijtimoiy-foydali, unumli mehnat jarayonida o'quvchining texnik ijodkorligini tashkil etishda faoliyatni ijtimoiy buyurtmadan ijodkorlikka aylantirish kerak bo'ladi.

To'garak faoliyati jarayonida o'quvchilar o'z kollejlari uchun o'quv-ko'rsatmali qurollar: jadvallar, rasmlar, diagrammalar, kolleksiyalar, oddiy modellar, stendlar, harakatdagi modellarni

yaratishi mumkin.

Mehnat tarbiyasi oilada tabaqalashtirilgan holda olib boriladi: bolalar

o'z-o'ziga xizmat qiladilar, uy hayvonlarini parvarishlaydilar, ro'zg'or texnikalarini ta'mirlash bilan shug'ullanadilar. Oila budjeti va uni yuritish bilan bog'liq topshiriqlarni bajaradilar, oilada bolalar va kattalar mehnatini hamkorlikda tashkil etishning imkoniyatlari cheksiz.

So'nggi yillarda o'quvchilar mehnat tarbiyasiga jamoatchilik katta e'tibor bermoqda. Yirik fermer xo'jaliklari, qo'shma korxonalarining jamoalari maktablarni otaliqqa olmoqda, ularning moddiy bazasini yaratish, o'quvchilarning bilim olishlari, ijtimoiy-foydali mehnatni tashkil etishda yordam bermoqdalar.

Mehnat faoliyatining asosiy turlari quyidagilardir:

O'quv mehnati o'quvchilarning ilmiy bilimlar hamda turli fanlar asoslarini o'zlashtirishga yo'naltirilgan faoliyati turidir.

Ijtimoiy-foydali mehnat shaxsni har tomonlama kamol toptirish hamda uning muayyan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga yo'naltirilgan hamda ijtimoiy mehnat xarakteridagi faoliyati turidir.

Hozirgi davrda ta'lim muassasalarida o'z-o'ziga xizmat keng yo'lga qo'yilmoqda. O'z-o'ziga xizmat o'quvchilarning ijtimoiy va o'quv ehtiyojlarini qondirish maqsadida ularning o'zlari tomonidan amalga oshiriluvchi mehnat faoliyati turidir. O'quvchilarning navbatchiligi o'z-o'ziga xizmat qilishni tarkib

toptirishning muhim shaklidir.

Unumli mehnat turlari xilma-xildir. Masalan, o'quvchilarning mehnat haftaligi, chorvaga yem-xashak tayyorlash va shirkat xo'jaliklarida faoliyat yuritish va boshqalar. Unumli mehnat -o'quvchilar mehnatining eng ommaviy shakli sanaladi.

O'quvchilar hozirgi davrda «Kamolot» yoshlar ijtimoiy harakati faoliyatida ishtirok etadilar, Dorivor o'simliklar, urug'larni yig'ish, o'quv yurti binolarini ta'mirlashda qatnashmoqdalar, fermer, shirkat va jamoa xo'jaliklarida ishlab chiqarishni tashkil etishda ishtirok etmoqdalar.

Ayni vaqtda, juda ko'plab maktablarda yordamchi xo'jalik mavjud. Korxonalar va xo'jaliklar ta'lim muassasasiga majmuaviy yondashuv asosida mehnat tarbiyasini tashkil etishga ko'maklashmoqdalar. O'quvchilar ishlab chiqarish subyektlarining iqtisodiy rivojlanishi bilan tanishadilar, Bu jarayon ularni turli kasblarni egallash shartlari va sharoitlari bilan tanishtirishga yordam beradi.

Mehnat tarbiyasi o'quvchilarni mehnatga psixologik va amaliy jihatdan tayyorlashni nazarda tutadi. Zero, mavjud sharoitda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar shaxs kamolotiga nisbatan juda katta talablarni qo'yimoqda. Xususan, mehnatga muhim ijtimoiy burch sifatida qarash, ma'lum faoliyatni bajarishda mas'uliyatni his etish, mehnatga va uning natijasi, shuningdek, mehnat jamoasiga hurmat, mehnat faoliyatini tashkil etishda tashabbuskorlik, faollik ko'rsatish, o'z aqliy va jismoniy qobiliyatini to'liq namoyon etishga bo'lgan ichki ehtiyoj, mehnatni ilmiy tashkil etish yo'lida amaliy harakatni olib borish shular jumlasidandir.

Mehnatga psixologik jihatdan tayyor bo'lish esa tarbiyaviy ishlar tizimida amalga oshirilib, ularning har biri quyidagi vazifalarni hal etishga yordam beradi:

- o'quvchilar tomonidan mehnatning ijtimoiy ahamiyati, mehnatni tashkil etish hayotiy zaruriyat ekanligining anglab yetilishiga erishish;
- ularda mehnat faoliyatini amalga oshirishga nisbatan rag'bat uyg'otish;
- o'quvchilarda mehnat ko'nikma va malakalarini shakllantirish va hokazolar.

Jamiyatda kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar, mulkka egalik,

xususiy mulkni yaratish yo'lida qonun doirasida olib borilayotgan amaliy faoliyatni qo'llab-quvatlashga yo'naltirilgan ijtimoiy harakatlar mehnat tarbiyasiga yangicha yondashuvni talab etmoqda.

Mehnat tarbiyasining yangi texnologiyalar asosida o'quv dasturlari, ta'lim metodlarining variativligi tamoyili yotadi. Dasturlar kasb-hunar kollejlari ixtisoslashgan turli kasblar bo'yicha yaratiladi. Ularda kasbiy ta'limni o'zlashtirishga nisbatan qo'yilgan davlat talablari o'z ifodasini topadi.

Ta'lim jarayonida egallangan bilim, ko'nikma va malakalar mehnat tarbiyasida pedagogik faoliyatning yakuniy natijasi emas, balki inson qobiliyatining rivojlanishi, mehnatga bo'lgan layoqatini rivojlantirishning samarali vositasidir. Bu esa mehnat tarbiyasida an'anaviy metodlarni emas, balki bilim olishning faol metodlaridan foydalanib, o'quvchilarda tadqiqotchilik hamda ixtirochilik malakalarini rivojlantirish metodlarini qo'llashni nazarda tutadi.

Bundan tashqari muammoli, izlanuvchan tadqiqot metodlari, konstruktorlash, loyihalash, texnik modellashtirish, mehnatni tashkil etish jarayonida uning eng yaxshi variantlarini izlab topish, ijodiy topshiriqlarni to'g'ri tanlay olish, shuningdek, tanlovlar, yoshlarning ijodiy ko'rgazmalarni tashkil etish ham eng samarali metodlardan sanaladi.

Mehnat ta'limi va tarbiyasining tashkiliy-metodik shakllari o'qituvchi tomonidan tanlanadi. Bu shunday shakl va metodlar bo'lishi kerakki, u o'quvchiga mehnati muvaffaqiyatidan quvonch baxsh etsin, o'z mehnatidan o'zi faxrlansin.

Mehnat tarbiyasining texnologiyalari o'quvchining nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llash imkoniyatini yaratishi zarur. Bu esa, o'z navbatida, mehnat ta'limi mazmunini ham takomillashtiradi. U kompleks xarakter kasb etib, o'quvchilarda o'quv texnika va texnologiyalari haqida tasavur hosil qilishi, amaliy masalalarni hal etish malakasini shakllantirishi, sifat natijalarini ta'minlashi lozim. Ayniqsa, o'quv topshiriqlarini hal etishga ijodiy yondashish, ishlab chiqarishning texnik-iqtisodiy, ijtimoiy ko'rsatkichlarini yuqoriga ko'tarishga intilish hosil qilishi maqsadga muvofiqdir.

Mehnat tarbiyasida sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar rejasida mehnat tarbiyasi yo'nalishidagi tadbirlarning o'rin olishini ta'minlash muhim pedagogik

vazifalardan biridir. Mehnat tarbiyasi turli an'anaviy va noan'anaviy shakllarda tashkil etiladi. Demak, o'quvchilarning mehnat faoliyatini tashkil etish jarayonida quyidagi vazifalar amalga oshiriladi:

O'quvchilarning mehnat ta'limi jarayonida ularning mehnatga qiziqishlarini oshirish, kasbiy yoki mehnat faoliyatiga tayyor bo'lishni ta'minlash.

O'quvchilar kuchini to'g'ri taqsimlash, faoliyat turlari va uni ijro etishda o'rin almashtirish vositasida ularda rahbarlik va ijrochilik malakalarini hosil qilish.

O'quvchilarning mehnat faoliyatiga rag'batlantirishning samarali metod va vositalaridan foydalanishga e'tiborni qaratish.

Mehnat faoliyatining turidan qat'i nazar mehnat madaniyatini shakllantirish, kasbiy faoliyatni rejalashtirish, vaqtdan oqilona foydalanish, o'z joyini tartibli saqlash hamda mehnat qurollariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish.

Mehnat tarbiyasining iqtisodiy tarbiya bilan aloqadorligi. O'tgan asrning 30-yillaridan boshlab o'quvchilarga iqtisodiy bilim berish hamda, ularda mehnat va kasbiy faoliyatni tashkil etish ko'nikma, malakalarini shakllantirish masalasiga jiddiy e'tibor berila boshlandi. O'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda ishchanlik, tartiblilik, ehtiyotkorlik xislatlarini shakllantirish tarbiyaviy ishlarning tarkibiy qismlaridan sanaladi.

Hozirgi davrda, kadrlar tayyorlash masalasi eng muhim vazifa sifatida qo'yilib, ta'lim sifatini oshirish bilan birga o'quvchilarni iqtisodiy bilimlar bilan qurollantirish, ayniqsa, bozor iqtisodiyoti munosabatlari shakllanayotgan mavjud sharoitda muhim va zarur.

Iqtisodiy ta'lim o'quvchilarga xo'jalik yuritish tizimi (oila budjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar) to'g'risidagi nazariy bilimlarni berishga yo'naltirilgan pedagogik jarayon.

Iqtisodiy tarbiya o'quvchilarga iqtisodiy bilimlarni berish, ularda xo'jalik yuritish faoliyat (oila budjetini shakllantirish, xo'jalikni yuritish, mavjud moddiy boyliklarni asrash, ko'paytirish, savdo-sotiq munosabatlarini to'g'ri tashkil etish va hokazolar)ni tashkil etish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iborat pedagogik faoliyat jarayoni.

Binobarin, iqtisodiy tarbiya yosh avlodda iqtisodiy bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish, ularni tejamkorlik, mehnatsevarlik, tashabbuskorlik, iqtisodiy faoliyatni yo'lga qo'yish to'g'risida fikrlashga o'rgatadi.

Iqtisod, iqtisodiyotning o'zi nima? Bu tushuncha yunon olimi Geliot tomonidan kiritilgan bo'lib, bu - «uy xo'jaligini boshqarish san'ati» ma'nosini anglatadi. Keyinchalik bu tushunchaning mohiyati kengayib, ma'nosi ham to'ldirib borilgan. Iqtisodiyot - bu juda keng va murakkab tushuncha. Iqtisod atamasi tor ma'noda inson yaratgan barcha boyliklarni tejash, shuningdek, inson mehnatini qadrlash ma'nosini anglatadi. Keng ma'noda iqtisodiyot insonning tirikchiligini o'tkazishga qaratilgan xo'jalik faoliyati bo'lib, bu faoliyat ishlab chiqarishdan boshlanib, yaratilgan mahsulotlarni iste'mol etish bilan yakunlanadi.

Demak, iqtisod inson faoliyatining asosiy jihati bo'lib, jamiyatning eng muhim negizi, uning poydevori hisoblanadi. Chunki, eng avvalo, insonning inson sifatida talab-ehtiyojining qondirilishiga, albatta, uning iqtisodiy faoliyati asosida erishiladi.

Bulardan ma'lumki, inson o'z hayotida iqtisodiyot bilan doimiy munosabatda bo'ladi. Iqtisodiy tarbiya, avvalo, oiladan boshlanadi. Oilada iqtisodiy tarbiya zamirida ham mehnatsevarlikni tarbiyalash yotadi. Bolalar o'z mehnati natijalarini ko'rgandagina o'z imkoniyatlaridan to'g'ri foydalanayotganini anglab yetadi, mustaqil faoliyat yuritishni o'rganadi, ularda tadbirkorlik va ishbilarmonlik xislatlari tarkib topadi.

Oilada yo'lga qo'yiladigan bolalar mehnati hovli va xonalarni tartibli saqlash, kiyim-kechaklarni asrab-avaylash, uy jihozlarini ta'mirlash, ro'zg'or yumushlariga yordam berish kabilar ko'rinishlarida namoyon bo'ladi.

Ota-onalar bolalarni mehnat faoliyatini kuzatib borib, ularga zarur o'rinda maslahat beradilar. Ayniqsa, o'quvchi-yoshlarda oilada ham, ta'lim muassasalarida ham tejamkorlikka rioya qilishga o'rgatish katta ahamiyatga ega.

Iqtisodiy tarbiya o'z ichiga o'quvchilar tomonidan iqtisodiyot asoslarini o'rganish, ularning unumli va ijtimoiy mehnatning turli ko'rinishlarida ishtirok etish, rejalashtirishga doir bilim va malakalarga ega bo'lish, ishlab chiqarish mahsulotlarini hisobga olish va nazorat qilish kabilarni oladi.

Iqtisodiy tarbiyaning inson va jamiyat, iqtisodiy geografiya, tarix, matematika, ximiya, biologiya, mehnat ta'limi darslarida amalga oshirilishi yanada ijobiy samaralarni beradi. Eng muhimi «Iqtisodiyot asoslari» o'quv fani asosida o'quvchilar iqtisodiy tushunchalar, kategoriyalar hamda ishlab chiqarishni rivojlantirish qonuniyatlarini o'rganadilar.

Jamiyatda keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish, xo'jalikni oqilona tashkil etish, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini takomillashtirish, moliya operatsiyalarini to'g'ri tashkil etish, rejalashtirish, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish samaradorligi, korxonalar rentabelligi, kichik va o'rta biznes, ijara, bozor infrastrukturasini, mahsulot qiymati, sof daromad, qo'shimcha daromad, budjet, xaridor, tovar, tovarlar importi va eksporti, shartnoma, birja, raqobat, menejment, marketing, pul, bank, banknot va boshqalar haqida to'la ma'lumotlarning berilishi o'quvchilarning iqtisodiy ongini shakllantirishga yordam beradi.

Sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlar hamda tarbiyaviy soatlarda iqtisodiy mavzularda tarbiyaviy suhbat, bahs va munozaralar uyushtiriladi, og'zaki jurnal yaratiladi, viktorina tashkil etiladi, to'garak yoki klublar faoliyati yo'lga qo'yiladi.

«Mehnat faoliyatining sifati va samaradorligi nimalarga bog'liq?», «Xo'jalikning qiymati qancha turadi?», «Na birimiz iqtisodchi bo'lishimiz mumkin», «O'quv yurtimizning iqtisodiy ahvoli va budjeti qanday ahvolda?», «Iqtisod bizning hayotimizda», «Bo'sh vaqtdan unumli foydalanish mumkinmi?», «Tejamkorlik nima?» va hokazo mavzularda tarbiyaviy tadbirlarning o'tkazilishi o'zining ijobiy natijalarini beradi. «Yosh iqtisodchi» markazi faoliyatini yo'lga qo'yish maqsadga muvofiqdir. Bularning barchasi o'quvchilarda quyidagi xislatlarning shakllanishiga zamin yaratadi:

- mehnat faoliyatiga nisbatan mas'uliyat bilan munosabatda bo'lish, mehnatsevarlik, yijdonlilik, jamiyat va davlat oldida o'z burchini his etish;
- tejamkorlik, rejalilik;
- intizomlilik, uddaburonlik;
- uyushqoqlik, ishchanlik;
- tartibsizlikka nisbatan murosasiz bo'lish va boshqalar.

2.3. Kasb-hunar kolleji o'quvchilarini kasbiy yo'nalishlari orqali mehnatga ongli munosabatini shakllantirish.

O'quvchilarni kasbiy yo'nalishi orqali mehnatsevarlikka tayyorlash kasb-hunar kollejini muhim vazifasidir. Bu tayyorgarlik ikki omilni:

- 1) Jamiyatning kadrlarga bo'lgan extiyojini;
- 2) Yoshlarning shaxsiy qobiliyatini hisobga olib amalga oshiriladi..

Ikkinchisi, shaxsning kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashi bilan bog'liqdir. O'quvchilarni kasb tanlashga tayyorlash: ular e'tiborini targ'ib qilinayotgan kasblarga jalb etishni, mehnatning ilmiy asoslari bilan chuqur tanishishni yo'lga qo'yishni, ularni faqat zarur malaka va ko'nikmalar egallashnigina emas, shu bilan birga shaxsni, qobiliyatlarni, rivojlantirishni ta'minlovchi faoliyatga jalb etishni ham o'z ichiga oladi.

Kasbga yo'naltirish ishining dastlabki bosqichida targ'ibotchilik ishiga o'quvchilarning o'zini faol jalb etish zarur. Bu, shubxasiz, ularning ishlab chiqarish va undagi kasblar bilan batafsil tanishishlari uchun zamin yaratadi. Maktabda kasblarni targ'ib qilish vositalari sifatida kasb tanlashga bag'ishlangan leksiyalar, suxbatlar, uchrashuvlar, baxslar, kechalar, maktab radiosi orqali maxsus eshittirishlar uyushtirish, devoriy gazetalar chiqarishdan foydalaniladi. Maktab yoshlari uchun tengdoshlari –korxonalarining ishchilari va hunarg'texnika bilim yurtlari o'quvchilari bilan bevosita aloqalar juda foydali bo'ladi, umumiy manfaatlar, do'stona o'zaro munosabatlar ko'pincha maktab bitiruvchisi keyinchalik qo'shiladigan mehnat jamoasini tanlashini belgilab beradi. Kasb maorifida badiiy adabiyot alohida o'rin tutadi. O'quvchilarning o'qishi va muhokama qilishi uchun adabiy asoslarni tanlash kasbga yo'naltirish ishining muhim bo'limidir. O'quvchilarda kasbga bo'lgan qiziqishlarni shakllantirish bosqichi ularni mehnat faoliyatiga qo'shish bilan ham bog'liqdir.

Kasb-xunar kolleji oquvchilari egallagan kasblari ijtimoiy ahamiyatga molik sabablarini shakllantirish uchun darsdan tashqari tarbiyaviy ishlarda katta imkoniyatlar yaratadi.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish yuzasidan darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar mazmuni: kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablarini shakllantirishni, o'quvchilarni turli kasblar va mutaxassisliklar bilan tanishtirishni, kasbga bo'lgan qiziqishlarni rivojlantirishni, o'quvchilarning o'ziga xos mayllari va imkoniyatlarini aniqlashni o'z ichiga oladi. Shulardan kelib chiqib, yuqori sinf o'quvchilarida kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablarini shakllantirishga doir darsdan tashqari tarbiyaviy ishlar shakllari va usullarini ko'rib chiqamiz.

Darsdan tashqari ishlar tarbiyaviy ta'sir ko'rsatishning xilmag'xil usul va shakllari bilan ajralib turadi. Kasblar to'g'risidagi mehnat faoliyati turlari haqidagi axborot manbaiga qarab kasbga yo'naltirish shakli va usullarini shartli ravishda uch guruhga:

- 1) Og'zaki
- 2) Ko'rgazmali
- 3) Amaliy shakl va usullarga bo'lish mumkin.

Kasbga yo'naltirishning og'zaki shakl va usullari guruhini kasblar to'g'risidagi hikoyalar, suhbatlar, leksiylar, kitoblar o'qish va muhokama qilish, kitobxonlar konfrensiyalari, tegishli mavzulardagi insholar ustida ish olib borish, baxslar, turli kasb vakillari o'rtasidagi uchrashuvlar, mavzuli kechalar. Kasblar olamida og'zaki jurnalini chiqarish, o'yinlar, musobaqalar tashkil etadi.

Shahar sanoatkorxonalariga ekskursiyalar, kasb faoliyatining turli tomolarini namoyon etadigan filmlar, fotoko'rgazmalar, rasmlar, jadvallarni ko'rsatish, maktablar va sanoat korxonalarida tashkil etilgan kasbga yo'naltirish burchaklari va kabinetlarida, mehnat shong'shuxrati xonalarida ko'rgazmali tashviqot vositalaridan keng foydalanish kasbga yo'naltirishning ko'rgazmali shakllari va usullari guruhini tashkil etadi⁷.

Umumiy ta'lim va hunar maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida o'quvchilarni kasbga yo'naltirishda baza korxonalarining katta ahamiyatga ega ekanligiga alohida e'tibor qaratiladi. Maktab va baza korxonaning birgalikda

⁷ Jo'raev A.J. "Tarbiyaviy darslarni o'tish". T.: «O'qituvchi» 1994.

ishlashi o'quvchilarda mehnatga munosabatni tarbiyalashning, kasb tanlashning yetakchi omili hisoblanadi. O'quvchilarda u yoki bu kasbga jiddiy qiziqish ular bu kasb haqida faqat ma'lumot olibgina qolmay, shu bilan birga tegishli yo'nalishda o'z kuchlarini amalda qo'llaganlarida, ishlab chiqarish, uning yutuqlari va istiqbollari bilan tanishganlaridagina namoyon bo'ladi.

Korxonalarda maktab o'quvchilari bilan kasbga yo'naltirish ishlari ishlab chiqilgan reja asosida olib boriladi, har bir sinfga muayyan o'qituvchi biriktiriladi. Kasbga yo'naltirish ishlarini tashkil etish va o'tkazishda korxonalar ishtirok etadilar.

O'quvchilar ishlab chiqarish korxonalariga o'quvchilar sexlari kasbga yo'naltirish maqsadida o'quvchilarni unumli mehnatga jalb etishning alohida ta'sirchan shaklidir. O'quvchilar ishlab chiqarish jamoa a'zosiga mustaqil ish soxasi ishonib topshirilsa, o'shanda u o'z mehnati natijalarini ko'radi, bu natijalarni katta yoshdagi o'rtoqlar ham ijobiy baholaydilar. Bu uning quvonch, qoniqish bag'ishlaydi, o'z kuchiga ishonch hosil qiladi.

Yuqori sinf o'quvchilarida kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablarini shakllantirishga ko'maklashadigan darsdan tashqari tarbiyaviy ishning ayrim shakllari va usullariga to'xtalib o'tamiz.

Eng keng tarqalgan shakl suxbatdir. Kasb to'g'risidagi suxbatga bir qancha talablar qo'yiladi. Suxbat uchun savollarni tanlash kasb vakilining o'quvchilar bilan jonli, bevosita muloqoti xususiyati bilan belgilanadi. Suxbat o'zini yaxshi biladigan, u haqda maroqli hikoya qilib beradigan mutaxassis tomonidan o'tkazilishi kerak. Suxbatda aniq misollar asosida kasbning xususiyatlarini, uning uchun xos bo'lgan qiyinchiliklarni, ijodiy o'sish imkoniyatlarini ochib berish muhimdir. Suhbatda kasbning ishlab chiqarish mazmuni, masalan, korxonaga ekskursiya qilganpaytda o'quvchilar mehnat qurollari, buyumlar bilan bevosita tanishishlari, ularning ishini kuzatishlari mumkin bo'lgan paytdagidan qisqaroq yoritiladi. Suhbat quruq bo'lmasligi, har bir qoidani misollar, faktlar bilan mustaxkamlash zarur. Suxbatga tashviqot-targ'ibot yo'nalishi bermaslik kerak – maktab o'quvchilari kasb tanlashning to'la erkinligi imkoniyatini xis etishadi.

Maqsadli yo'nalishga muvofiq suxbatlar tanishtiruvchi va yo'naltiruvchi suxbatlar bo'lishi mumkin. Tanishtiruvchi suxbatlar muayyan kasblarning tipik xususiyatlari haqida tasavvur beradi va ko'pincha ko'p miqdordagi o'quvchilar bilan o'tkaziladi.

Yo'naltiruvchi suxbatlar alohida ixtisoslar bilan batafsil va aniq tanishtiradi, ularda o'quvchilarning bilim va qobiliyatlari mazkur mehnat faoliyatining terli talablari bilan albatta taqqoslanadi, kasb tanlashdagi tipik xatolar ko'rsatiladi. Yo'naltiruvchi suxbatlar o'quvchilarning guruxi va har bir o'quvchi bilan yakka tartibda o'tkaziladi.

Kirish suxbatlari katta ahamiyatga ega. Ular o'quvchi kasb tanlash sohasida amal qilishi kerak bo'lgan asosiy prinsipial qoidalar bilan tanishtiradi.

Suxbat o'quvchiga kasb xususiyatlarini qanchalik chuqur va xisg'xayajonli qilib yetkazmasin, maktab o'quvchisiga ta'sir ko'rsatish imkoniyatlari jihatdan mazkur kasb vakillari bilan uchrashuvdan keyinda turadi. O'quvchilar muayyan kasb egalari bilan muloqotda bo'lib, ular bilan bevosita ishchi joylarida, mehnat jamoasida uchrashib, o'zlarining bo'lajak kasblarini muhim bir tarzda emas, balki aniq insonda ko'rishadi, uning turmush yo'lida, mehnat tajribasiga chuqur kirib borishadi, kasb afzalliklarini yorqinroq ko'rishadi. Bunday uchrashuvlar cho'g'ida vujudga kelganko'plab savollarni aniqlash uchun katta imkoniyat yaratiladi. Bu tarbiyaviy shakldan foydalanib, o'quvchilarni ko'pgina ishchi kasblari mutaxassislari bilan tanishtirish mumkin.

O'quvchilarning kasblar haqidagi referatlari ularning bilish faoliyatini faollashtirishning shakllaridan biri bo'lib, ular o'quvchilar tafakkuri va mustaqilligining rivojlanishiga ko'maklashadi.

Referatni tayyorlash o'quvchidan uzoq davom etadigan ishni: maxsus adabiyotlarni o'qishni, maxsus kasb mutaxassislari bilan uchrashuvlarni, zarur tadbirlarda ishtirok etishni talab qiladi.

Kasb-xunar kolleji o'quvchilarining kasbga munosabatlarini hayotning ma'nosini axloqiy tushunishlarini aniqlash, ularda mehnat kishilariga chuqur hurmatni, ma'naviy prinsplar va xulq'-atvor normalarini tarbiyalash maqsadida

kasbga yo'naltirish ishida iste'dod to'g'risida, hayot mazmuni haqida munozalar o'tkazish shaklidan foydalanish kerak.

Munozaralar qatnashchilardan bir qancha kasblar, jamiyatimizning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi haqida asosli, ancha keng bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Munozarada o'quvchi tanlayotgan kasbining afzalliklarini, o'z qobiliyatlarining ushbu kasbga mosligini ishonchli tarzda ko'rsatib berishi, muxokama qilinayotgan hayotiy masalalar yuzasidan muloxazalarning to'g'riligini isbotlash kerak. Munozara – tarbiyaning ancha murakkab shaklidir. Munozaraga tayyorgarlik va uni o'tkazish metodikasi boshqarib boruvchidan ham, uning qatnashchilaridan ham muammo bilan oldindan chuqur tanishishni, maxsus adabiyotlarni o'qishni, muxokama uchun taklif etilayotgan masalalarni har tomonlama puxta o'ylashni talab etadi. Bu masalalarning har biri o'quvchining tushunishi uchun yaqin bo'lishi, ularda qiziqish uyg'otishi, munozara elementiga ega bo'lishi kerak. Munozara mavzui o'tkir va muammoli bo'lishi, o'z ta'rifida bir necha xil xal etish imkoniyatini mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Kasb-xunar kolleji o'quvchisini hayotga, mehnatga va kasbiga bo'lgan tayyorlash munosabati bilan quyidagi baxs mavzularini tavsiya etish mumkin: “Sen tanlagan kasb sening tasavvuringda”, “Sen tanlagan kasbning hayotdagi o'rni”, ifodasi nimani bildiradi?”, “Kelajak kishisi qanday bo'ladi?” Zamondoshlaringdan kimga sen kelajak kishisi belgilarini ko'ryapsan?, “Sening hayot yo'lini tanlashing – faqat shaxsiy ishingmi?”

Munozarani o'tkazish rahbardan katta pedagogik odobni, bildirilayotgan fikrga hurmatni, qatnashchilarning nuqtai nazarlari mohiyatini ochib berishni va munozaraning borishini, qarashlarning to'qnashuvi natijasida vujudga keladigan ziddiyatli vaziyatni xal etishga qaratishni talab qiladi. Munozara qarashlar va shaxsiy fikrlarni erkin ifodalashni nazarda tutadi. Qatnashchilarning samimiyligi bir-birlariga va rahbarlarga ishonishiga asoslangandir.

Munozara uni olib boruvchining qisqacha kichik so'zi bilan boshlanadi. Unda mavzu nimaga chiqarilgan mavzu yuzasidan ayrim nuqtai nazarlar keltiriladi. Ayrim fikrlarning muayyan darajada adolatli ekanligi ko'rsatiladi, bu fikrlar izchil

rivojlantirilganda bir-biriga mos kelmay qolishi mumkin. Munozarani olib boruvchi kirish soʻzida bu fikrlarga baho bermaydi.

Munozaraning barcha qatnashchilariga “kim haq?” degan fikrga oʻz munosabatini bildirish taklif etiladi. Yakunlovchi soʻzda qatnashchilarning koʻpchiligiga maʼqul boʻlgan xulosalar va eʼtiroz uygʻotmaydigan fikrlar taʼkidlanadi, oʻylab koʻrish kerak boʻlgan va jamoa fikrini shakllantirishga muvaffaq boʻlinmagan savollar oʻrtaga qoʻyiladi.

Munozara bir tomondan, yakun chiqarish ham hisoblanadi, chunki u jamoatchilik fikrini ifodalash va mustaxkamlashga koʻmaklashadi, boshqa tomondan esa, nuqsonlarni aniqlash, kasb tanlashdagi ijtimoiy axamiyatga molik sabablarni, maktab oʻqituvchisining faol fuqarolik mavqeini tarbiyalash yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni yangidan qayta koʻrib chiqishga majbur qilishi mumkin. Kollej oʻquvchilarining, ayniqsa oʻsmirlarning shaxsiy faolligini uygʻotish uchun ularni kasblar bilan tanishtirish jarayonida joziba baxsh etadigan oʻyin jixatlari kiritiladi. Konfrensiyalar, otaliq tashkiloti vakillari bilan uchrashuvlarni oʻziga xos “kasblarni himoya qilish” tarzida oʻtkazish tobora keng ommalashmoqda.

Kichik yoshdagi oʻsmirlar bilan ishlashning faol shakllarini izlash musobaqa jihatlarini oʻz ichiga olgan, qatnashsilardan faollik, tashabbuskorlikni talab etadigan “oʻzingni sinab koʻr” oʻyinini tashkil etishga olib kelishi mumkin. Oʻyin toʻrt bosqichga boʻlinib, musobaqalashayotgan guruhlarining komandalari topshiriqlar olishadi va uni bajarish jarayonida muayyan kasb bilan tanishishadi. Kasb tanlashning anʼanaviy tadbirlari – otaliq korxonasiidagi kasblar toʻgʻrisida insholar yozish, korxonada mehnat shon-shuxrati muzeyiga ekskursiya oʻtkazish oʻyinga kiritilganda, oʻquvchilarda katta qiziqish uygʻotadi. “Oʻzingni sinab koʻr” oʻyini puxta oʻylangan, birinchidan, oʻsmirlarni faollashtirishga, ularda oʻyinda oshirilgan his-tuygʻu holatini qoʻllab-quvvatlashga va ikkinchidan, eng muhimi, oʻsmirlarda kasblarga ijodiy munosabatni shakllantirishga qaratilgan “pedagogik rejussura”ni oʻz ichiga oladi. Barcha kasbga yoʻnaltirish tadbirlarining mavzui juda xilma-xil boʻlishi mumkin, lekin u har doim oʻquvchilarning qiziqishlariga, ularning umumiy tayyorgarlik darajasiga mos boʻlishi kerak.

Kollej o'quvchilarini kasbga tayyorlashda, bu tanlashning ijobiy sabablarni shakllantirishda o'quvchilarning tashabbuskorligi va mustaqilligini eng ko'p darajada rivojlantiradigan, ularni faollikka da'vat etadigan, qiziqtiradigan kasblar bilan tanishtirishga, mazkur kasb kishisiga foydali bo'lgan shaxsiy sifatlarni tarbiyalashga qaratadigan, mehnat faoliyatining muayyan turiga mayl va qobiliyatlarni faol rivojlantirishga ko'maklashadigan kasb tanlashga yo'llashning shakllaridan foydalanish muhim ahamiyatga egadir.

Kasb tanlashning ijtimoiy ahamiyatga molik sabablari maktab o'quvchisining oliy insoniy maqsadlar va ehtiyojlarga ijtimoiy yo'nalishlarini kuchaytiradi. Yuqori sinf o'quvchilarining kasb tanlashdagi pozitsiyasining mustaxkamligi - bu mehnat faoliyatidagi munosabat yo'l-yo'riqlarining shunday darajaga yetkazilgan sistemasining barqarorligidan iborat bo'lib, bunda moddiy ishlab chiqarish sohasining turli kasblarga ijobiy yoki salbiy munosabat muayyan kasbni tasodifiy emas, balki e'tiqod bilan tanlashni belgilab beradi.

Kollejning ota-onalar bilan olib boradigan ishi o'quvchilarni kasbga yo'naltirish sistemasidagi muhim bo'g'indir. Tajribaning ko'rsatishicha, ota-onalar o'z farzandlarining muayyan hayotiy va kasb rejalarini belgilashda faol ishtirok etadilar. Shu bilan birga kasb tanlash va o'qishni davom ettirish yo'llarini belgilash o'quvchilarning o'zlari uchun ham, ularning ota-onalari uchun ham juda qiyin vazifa ekanligi ma'lum. Ota-onalarning maslaxatlari ko'pincha xalq xo'jaligi turli soxalarining kadrlarga bo'lgan real ehtiyojlariga to'g'ri kelmaydi. Ular farzandlarining qiziqishlari va qobiliyatlarini har doim ham bilaverishmaydi va ob'ektiv baholashmaydi. Ota-onalarning istaklari va bolalarning kasb niyatlari ko'p hollarda bir biriga mos kelmaydi. Bularning barchasi bolarni mehnatga va tanlashga tayyorlashda oilaga yordam ko'rsatishga qaratilgan ota-onalar bilan maxsus ishlashni tashkil etishni zarur qilib qo'yadi⁸.

O'quvchilarni kasbga yo'naltirish ishiga ota-onalarni tayyorlashni o'qituvchi umummaktab va sinflarning ota-onalar komitetlari amalga oshiradi. Barcha maktablar va sinflarda tuziladigan ota-onalar komitetlari ota-onalar bilan

⁸ Munavvarov A.K. "Oila pedagogikasi" T.: «O'qituvchi» 1994

o'quvchilar, maktab bilan ishlab chiqarish o'rtasidagi bog'lovchi bo'g'in bo'lib maydonga chiqadilar. Ular o'quvchilarning mehnat tarbiyasi va ularni kasbga yo'naltirishdagi birgalikdagi faoliyatini muvofiqlashtiradilar⁹.

Ota-onalar jamoasi quyidagi yo'nalishlar bo'yicha kasbga yo'naltirish ishlarini amalga oshiradilar: turli kasblarning vakillari bilan uchrashuvlarni tashkil etishga va sinf rahbarlariga va o'qituvchilarga yordam ko'rsatish; korxonalariga kasb yo'naltirishga doir ekskursiyalar o'tkazish, kasbga yo'naltirishga doir ishlarga doir ota-onalarni jalb etish; kasb tanlash kabinetlarini bezitishda maktabga yordam ko'rsatish.

Kasbga yo'naltirish masalalari yuzasidan pedagogik bilimlarni targ'ib qilish, maktabning o'quvchilar bilan kasbga yo'naltirishga doir ishlariga ota-onalarni faol jalb etish maktabning ota-onalar bilan kasbga yo'naltirish bo'yicha olib boriladigan ishining asosiy yo'nalishlaridir.

Ota-onalar o'rtasida pedagogik bilimlarni targ'ib qilish, kasbga yo'naltirish masalalarini keng yoritishni ko'zda tutadi. Bu yerda, bir tomondan, bolaning rivojlanishi, uning yosh xususiyatlari, uning qiziqishlari va mayllarining shakllanishi, mehnatga muhabbatni tarbiyalash yuzasidan oilaning ishi to'g'risidagi leksiya va suhbatlar, boshqa tomondan, hozirgi paytda va istiqbolda xalq xo'jaligi va kadrlarga bo'lgan extiyojining rivojlanishi to'g'risidagi iqtisodiy bilimlarni targ'ib qilish, ota-onalarni davlat alohida extiyoj sezayotgan turli kasblar bilan tanishtirishni, kasb egallash yo'llarini nazarda tutadi.

Kasbga yo'naltirish masalalari yuzasidan ota-onalarning pedagogik maorifini amalga oshirish ota-onalar jamoatchiligini ancha faollashtirish, ularning oiladagi tarbiya uchun mas'uliyatini kuchaytirish, ularni tarbiyaviy jarayonga kengroq jalb etish imkonini beradi. Kasb tanlash masalalari yuzasidan pedagogik bilimlarni targ'ib qilish ota-onalarni kasb yo'lini tanlashda farzandlariga yordam ko'rsatishga tayyorlashning asosiy yo'llaridan biridir. Ota-onalar o'tkazilayotgan tadbirlarning nazariy va metodik darajasini oshirish uchun ular bilan qo'shimcha ish tashkil etiladi. Seminarlar va metodik maslahatlar o'tkaziladi, ularni maktab

⁹ Yo'ldoshev J. "O'qituvchi ma'naviyatini shakllantirish" T.: "Sharq" 2000.

rahbariyati olib boradi. Ota-onalarning kasbga yo'naltirish ishida ishtirok etishining samarali shakllarini izlash maktab pedagoglar jamoasi, hamkorlikda olib boriladi.

Kasbga yo'naltirish masalalarini muvaffaqiyatli xal etish uchun pedagogik targ'ibot va ota-onalarning kasb maorifidan tashqari oila bilan yakka tartibda ish olib borish ham zarur. Bolaga ta'sir ko'rsatishning shakllari, usullari va vositalarini belgilashda ota-onalarga aniq yordam ko'rsatish bu boradagi asosiy vazifadir.

Ota-onalar bilan yakka tartibda ish olib borish shakli muayyan qiyinchiliklar tug'dirsa ham, eng ommalashgan ish shakli hisoblanadi. Uni o'tkazish uchun o'qituvchi oldindan tayyorgarlik ko'rishi kerak. Avvalo ota-onalar bilan suhbatda aniqlab olish lozim bo'lgan masalalar doirasini belgilash lozim. Suhbat chog'ida o'quvchilar va ota-onalarning niyatlari aniqlanadi, oila o'rganiladi, busiz oilada kasbga yo'naltirish ishini o'tkazib bo'lmaydi.

Ota-onalar bilan boriladigan yakka tartibdagi ish quyidagi yo'nalishlar bo'yicha o'tkazilishi lozim: kasbga yo'naltirish yuzasidan psixologik-pedagogik bilimlar bilan tanishtirish; kasblar olami va ularni egallash yo'llari, ularning farzandlari tanlayotgan tegishli kasblar bilan tanishish.

Maslahat ishini o'tkazish bir necha bosqichdan iborat bo'lib, ularda ota-onalar bilan yakka tartibdagi ish guruh tarzida o'tkaziladigan ish bilan qo'shib olib borilishi kerak. Jumladan, barcha guruhlar bilan shunday suhbatlar o'tkazish kerakki, ularning mazmuni o'z ichiga quyidagilarni olishi kerak:

a) psixologiya va pedagogikaning o'quvchilarning yosh xususiyatlari bilan tanishish imkoniyatini beradigan asosiy qoidalar;

b) xalq xo'jaligining ehtiyojlari, o'quv – ishlab chiqarish kombinatida o'rganiladigan kasblar to'g'risidagi ma'lumot.

Ota-onalar bilan yakka tartibda ish olib borish ular farzandlarining kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashida ota-onalarni faollashtirishning eng samarali shakli va o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni takomillashtirish vositasi hisoblanadi. O'qituvchi kasbga yo'naltirish ishi yuzasidan oila bilan ish olib borganda, birinchidan, kasb tanlashga oila ta'sirining umumiy tamoyillarini bilishga,

ikkinchidan ongli kasb tanlashni bilishga asoslanadi

I I - bob yuzasidan xulosalar.

Jamiyatda keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar amalga oshirilayotgan sharoitda Respublika iqtisodiyotini rivojlantirish, xo'jalikni oqilona tashkil etish, sanoat va qishloq xo'jaligi tarmoqlarini takomillashtirish, moliya operatsiyalarini to'g'ri tashkil etish, rejalashtirish, mehnat unumdorligi, ishlab chiqarish samaradorligi, korxonalar rentabelligi, kichik va o'rta biznes, ijara, bozor infrastrukturasini, mahsulot qiymati, sof daromad, qo'shimcha daromad, budjet, xaridor, tovar, tovarlar importi va eksporti, shartnoma, birja, raqobat, menejment, marketing, pul, bank, banknot va boshqalar haqida to'la ma'lumotlarning berilishi o'quvchilarning iqtisodiy ongini shakllantirishga yordam beradi. Kasb-xunar kolleji o'quvchilarining kasbga munosabatlarini hayotning ma'nosini axloqiy tushunishlarini aniqlash, ularda mehnat kishilariga chuqur hurmatni, ma'naviy prinsplar va xulq-atvor normalarini tarbiyalash maqsadida kasbga yo'naltirish ishida iste'dod to'g'risida, hayot mazmuni haqida munozaralar o'tkazish shaklidan foydalanish kerak.

Munozaralar qatnashchilardan bir qancha kasblar, jamiyatimizning iqtisodiy va madaniy rivojlanishi haqida asosli, ancha keng bilimga ega bo'lishni talab qiladi. Munozarada o'quvchi tanlayotgan kasbining afzalliklarini, o'z qobiliyatlarining ushbu kasbga mosligini ishonchli tarzda ko'rsatib berishi, muxokama qilinayotgan hayotiy masalalar yuzasidan muloxazalarning to'g'riligini isbotlash kerak. Munozara – tarbiyaning ancha murakkab shaklidir. Munozaraga tayyorgarlik va uni o'tkazish metodikasi boshqarib boruvchidan ham, uning qatnashchilaridan ham muammo bilan oldindan chuqur tanishishni, maxsus adabiyotlarni o'qishni, muxokama uchun taklif etilayotgan masalalarni har tomonlama puxta o'ylashni talab etadi. Bu masalalarning har biri o'quvchining tushunishi uchun yaqin bo'lishi, ularda qiziqish uyg'otishi, munozara elementiga ega bo'lishi kerak. Munozara mavzui o'tkir va muammoli bo'lishi, o'z ta'rifida bir necha xil xal etish imkoniyatini mujassamlashtirgan bo'lishi kerak. Kasb-xunar kolleji o'quvchisini hayotga, mehnatga va kasbiga bo'lgan tayyorlash munosabati

bilan quyidagi baxs mavzularini tavsiya etish mumkin: “Sen tanlagan kasb sening tasavvuringda”, “Sen tanlagan kasbning hayotdagi o’rni”, ifodasi nimani bildiradi?”, “Kelajak kishisi qanday bo’ladi?” Zamondoshlaringdan kimga sen kelajak kishisi belgilarini ko’ryapsan?, “Sening hayot yo’lini tanlashing – faqat shaxsiy ishingmi?”

Munozarani o’tkazish rahbardan katta pedagogik odobni, bildirilayotgan fikrga hurmatni, qatnashchilarning nuqtai nazarlari mohiyatini ochib berishni va munozaraning borishini, qarashlarning to’qnashuvi natijasida vujudga keladigan ziddiyatli vaziyatni xal etishga qaratishni talab qiladi. Munozara qarashlar va shaxsiy fikrlarni erkin ifodalashni nazarda tutadi. Qatnashchilarning samimiyligi bir-birlariga va rahbarlarga ishonishiga asoslangan bo’lishi lozimdir.

Tajriba – sinov ishlari

Tajriba sinov ishlarini Namangan tuman pedagogika kollejidagi 102-guruhda olib bordim. Guruhda talabalar soni 28 nafar bo'lib, shundan 25 nafari tajriba sinovida qatnashdi.

O'quvchilarni kasbga qiziqishini shakllantirishda ilmiy dunyoqarashini shakllantirishda zamonaviy pedagogik qadriyatlardan unumli foydalanishni quyidagi topshiriqlar asosida olib bordim.

1-topshiriq. “Chet el olimlarining pedagogik aksiologiyaga doir qarashlari” mavzusidagi toifalash jadvalni to'ldirish.

Toifalar				
Qadimgi falsafasida qadriyatli aks etishi	Sharq dunyoga munosabatning	Qadimgi faylasuflarining qadriyatga doir sharhlari	G'arb	O'rta asrlarda qadriyatli ongning taraqqiy etishi.

2-topshiriq. Aflotun tasnifi bo'yicha quyida keltirilgan qadriyatlarni turkumlashtirish.

- 1) O'lchov, mo'tadillik, vaqt bilan bog'liqlik;
- 2) Go'zallik va komillik;
- 3) Aql va tafakkur;
- 4) Idrok etish va bilimlarni chaqiruvchi qalbning lazzatlanishi;
- 5) Yuksak go'zallik.

3-topshiriq. “qadriyat g'oyasi va uning milliy falsafadagi rivoji” mavzusidagi konseptual jadvalni to'ldirish.

Manbalar	Qadriyatli tasavvurlar	Qadriyatli ongning nomoyon bo'lishi	Qadriyatli ustanovkalar	Qadriyatli orientatsiyalar
Avesto				
Tasavvuf ta'limoti				
Arab musulmon olami Uyg'onish davri mutafakkirlari				

4-topshiriq. “Fozil odamlar shahri”ga xayoliy ekskursiya uyushtirish, Ekskursiya davomida quyidagi jihatlarni o’rganishga e’tibor qaratish:


1. Shahar atrofi va ko’rinishi.
2. Shaharning tozaligi va ozodaligi.
3. Shahar odamlarining kiyinishi va o’zini tutushi.
4. Shahar odamlarini bir-birlariga munosabati.
5. Shahar odamlarida turli hil kasblar bo’yicha mavjud fazilatlar majmui.

5-topshiriq. Ekskursiya nihoyasiga yetgach, guruhlariga bo’linadi. “Fozil odamlar shahri” mavzusida loyiha tayorlash, loyihani taqdimot ko’rinishida taqdim etish.

6-topshiriq. Quyida ikki qismli kundalik taqdim etilgan bo’lib, unung birinchi qismida Ahmad Yassaviyning hikmatlaridan misollar berilgan, ikkinchi qismida esa, har bir hikmatning mazmuniga doir o’z munosabatlar yozish.

<p>Nafsdan kechib qanoatni pasha qilg'on, Har ne topsa, rozi bo'lib, bo'yin sung'on, Yaxshilarga xizmat qilib, duo olg'on, Andoq oshiq mashxar kuni armoni yo'q.</p>	
<p>Nafs yo'liga kirgan kishi rasvo bo'lur, Yo'ldan ozib, to'yib, to'zib, gumro bo'lur.</p>	
<p>Xayru sano qilg'onlar, yetim ko'nglin olg'onlar, Chahor yorlar hamrohi, kavsar labinda ko'rdim, Andog' o'lim joyini dorussalomda ko'rdim. Mufti bo'lg'on olimlar, nohaq fatvo berg'onlar, Andog' mufti joyini sirot ko'frigida ko'rdim.</p>	
<p>Oqil ersang, eranlarga xizmat qilg'il, Amru maruf qilg'onlarni izzat qilg'il.</p>	


7-topshiriq. Quyida keltirilgan “Nima uchun?” chizmasini to’ldirish.



8-topshiriq. “Tarbiyaviy qadriyatlar” mavzusiga doir “B-B-B chizmasi” grafik organayzerini to’ldirish.


Bilaman	Bilmoqchiman	Bilib oldim

9-topshiriq. Muruvvatlilik va saxovatlilik fazilatlarini ifoda etuvchi sifatlar.




Tadqiqot boshida 25 nafar o'quvchidan berilgan topshiriqlarni bajarish uchun 10 nafar yani, 40 % o'quvchi katnashdi. Tushuntirish ishlarini olib borganimizdan keyin berilgan topshiriqlarni 15 nafar, yani 60% o'quvchilar a'lo darajada bajardilar. Natijalardan ko'rinib turibdi-ki, biz oldimizga qo'ygan maqsadimizga ijobiy erishdik.

№	Tadqiqot boshida.						
	A'lo	%	yaxshi	%	qoniqarli	%	
1	4	16	6	24	15	60	



№	Tadqiqot oxirida.						
	A'lo	%	yaxshi	%	qoniqarli	%	
1	7	28	8	32	10	40	



KASBGA YO'NALTIRISHDA O'QUVCHI SHAXSIGA INDIVIDUAL YONDOSHISH METODIKASINING quyidagicha o'tkazdik va quyidagi natijalarga erishdik.

Maqsad yoshlarni birgina kasb bilan to'xtab qolmasdan qiziqishlari orqali bir nechta kasblarni ham o'rganishlariga sharoitlar borligini tushuntirib ularni holol mehnat qilib el-yurt oldida hurmatga sazavor bo'lishlariga davvat etdik.

Kasbga yo'naltirishda o'quv materialini mazmuni fan va texnika taraqqiyotini hozirgi darajasiga mos ravishda o'quvchilarga tushunarli bo'lishi kerak. Bundan tashqari o'quvchilarni aqliy va jismoniy tayyorgarligini ham nazarda tutish kerak. O'quvchilarning qiziqish va qobiliyatlarini turli anketa savollari va testlar yordamida ham aniqlasa bo'ladi. Quyida H.F.Rashidov, SH.T.Ergashev hamda S.Boltaboevlar tomonidan taklif qilingan o'quvchilarni kasbiy yo'nalganligini aniqlash metodikasini kasb-hunar kollejida o'tkazganimizni natijalari quyidagicha bo'ldi.

O'quvchilar ushbu metodikaga ko'ra sizga turli kasblar va mashg'ulotlarga oid savollar havola etiladi. Savollar tartiblangan bo'lib, javoblar varaqasidagi raqamlarga mos keladi. Siz o'z qiziqishlaringizni hisobga olgan holda har bir savolga bergan javobingizni 1,2,3 yoki 4 ball bilan baholashingiz lozim bo'ladi. Qo'yiladigan ballar quyidagicha izohlanadi:

- Umuman qiziqarli emas - 1 ball;
- Unchalik qiziqarli emas - 2 ball;
- Qiziqarli - 3 ball;
- Juda qiziqarli - 4 ball.

Savollar ichida sizga notanish bo'lgan bir qator kasblar ham keltirilgan. Bunday hollarda siz "ushbu kasblar haqida nimalarni bilasiz?" degan savolga taxminan javob berishingiz lozim bo'ladi. Uzoq o'ylamang. Ko'proq hayolingizga kelgan dastlabki fikrlashingizni javob varaqasiga tushiring.

Menga yoqadi:

1. Mashina va mexanizmlar bilan ishlash.
2. Metroda sayr qilish.
3. Radiohavaskorlik.
4. Binolar maketini tayyorlash.
5. Suv o'tkazgichni tuzatish.
6. Rivojlanishi sust bolalarga yordam berish.
7. Traktorlarga texnik xizmat ko'rsatish.
8. Bolalarni maktabga tayyorlash.
9. Film ko'rish.
10. Pul, foyda va zararni hisoblash.
11. Radio-teleapparaturani sozlash.
12. Velosiped tuzatish.
13. Parashyut bilan sakrash.
14. Kompyuterda ishlash.
15. Rangli rasm solish.
16. Gaz plitalarini tuzatish.
17. Bemorlarni tinchlantirish va ularga yordam ko'rsatish.
18. Ekskavator bilan ariq va zovurlar kavlash.
19. Bolalar bilan ishlash.
20. Kuy chalish.
21. Jamoat tartibini saqlash.

22. Oziq-ovqatlar bezash, garnirlar tayyorlash.
23. Mashinalarni “kavlashtirish”.
24. Avtobus haydash.
25. Radiodetallarni almashtirish.
26. g`isht terish.
27. Obodonlashtirish.
28. Dorishunoslik.
29. O`rmon kesish, daraxtlarni tartibga solish.
30. To`garak ishini tashkil qilish.
31. Raqsga tushish.
32. Aktsiyalar bozorini kuzatish.
33. Ko`pchilik uchun taom tayyorlash.
34. Metallarni biriktirish.
35. Samolyotlarga texnik xizmat ko`rsatish.
36. Xovliga chiroq tushirish.
37. YOg`ochga ishlov berish.
38. Rezba qirqish.
39. Bemorlarga yordam ko`rsatish.
40. Mevali ko`chatlar etishtirish.
41. Bolalarga kurash usullarini o`rgatish.
42. Ashula aytish.
43. Tejamkorlik bo`yicha maslahatlar berish.
44. Xaridni rejalashtirish.
45. Ob-huvoni oldindan aniqlash.
46. Ralli musobaqalarida qatnashish.
47. O`t o`chirish.
48. Metallni payvandlash.
49. Aholini suv bilan ta`minlash.
50. Doya-enaga faoliyati.
51. Erga ishlov berish.

52. Suvda suzish, o'milish.
53. SHe`r yodlash va ifodali o'qish.
54. Matematik misollar echish va hisob-kitob qilish.
55. Zamonaviy soch turmaklarini o'ylab topish.
56. Bichish, tikish.
57. Daryoda yuklarni tashish.
58. Akkumlyator tuzatish.
59. Bino poydevorini quyish.
60. O'rin-joy, xonadonni yig`ishtiruvchi robot yaratish.
61. Bemorlarni parvarishlash.
62. Mashinada paxta terish.
63. Bolalar va yoshlarning bo'sh vaqtlarini tashkil etish.
64. Latifa aytish va eshitish.
65. Latifa aytish va eshitish. hujjatlar bilan ishlash.
66. Dazmol, kir yuvish mashinasi kabilarni tuzatish.
67. Mebel yasash.
68. Poezdga sayohat qilish.
69. Pochta aloqasi operatori.
70. Oyna qirqish.
71. Liftga qavatga ko'tarilish.
72. Nuqsonli bolalarga yordam berish.
73. O'simlik va hayvonlarni parvarishlash.
74. Sport musobaqalini tashkil qilish.
75. Loydan qo'g`irchoq yasash.
76. Tejamkorlik.
77. SHirinliklar tayyorlash.
78. Er osti boyliklarini izlab topish.
79. Avtopoygalarni tomosha qilish.
80. Kuygan lampochkalarni yangilash.
81. Devorgagulqog`oz yopishtirish, bo'yash.

82. Elektr-gaz payvandlash ishlari bilan shug`ullanish.
83. Dezinfektsiyalash.
84. Akvariumda baliq boqish.
85. Bolalarga o`qish-yozishni o`rgatish.
86. Afisha va e`lonlar chizish.
87. Bozordagi narx navoni kuzatib borish.
88. Dasturxon tuzash, mehmon kutish.

Javoblar varaqasi

Savollarga javob berib bo`lganingizdan so`ng har bir qatordagi savolga berilgan javob ballari yig`indisini 2-ustunga yozing. Yig`ilgan ballarning eng yuqorisiga mos kelgan sohaga oid kasblarga sizdagi qiziqish va moyillik darajasi yuqori.

Savol raqami	Ballar yig`indisi	Kasb guruhi	Sohalar
<i>1</i>	<i>2</i>	<i>3</i>	<i>4</i>
1 12 23 34 45 56 67 78		1-guruh	Sanoat
2 13 24 35 46 57 68 79		2-guruh	Transport
3 14 25 36 47 58 69 80		3-guruh	Aloqa
4 15 26 37 48 59 70 81		4-guruh	Qurilish
5 16 27 38 49 60 71 82		5-guruh	Uy-joy kommunal xo`jalik
6 17 28 39 50 61 72 83		6-guruh	Tibbiyot
7 18 29 40 51 62 73 84		7-guruh	Qishloq va o`rmon xo`jaligi
8 19 30 41 52 63 74 85		8-guruh	Pedagogika
9 20 31 42 53 64 75 86		9-guruh	San`at va madaniyat
10 21 32 43 54 65 76 87		10-guruh	Ijtimoiy-iqtisodiy soha
11 22 33 44 55 66 77 88		11-guruh	Savdo va umumiy ovqatlanish

1-guruh. Sanoat.

Sizda sanoat sohasiga mansub bo'lgan kasblarga qiziqish va moyillik mavjud. Siz samolyotsozlik, energetika, avtomobilsozlik, geologiya, metallurgiya, kimyo va engil sanoat, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlari, shuningdek, matematika, fizika, kimyo fanlarini chuqur o'rganishga yo'naltirilgan ta'lim olishingiz mumkin.

2-guruh. Transport.

Sizda avtomobillarni boshqarish, ta'mirlash va ularga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga moyillik yuqori. SHu bois siz transport vositalari bilan ishlaydigan mutaxassislar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlari yoki matematika va fizika fanlari yo'nalishida qo'shimcha tahsil olishingiz mumkin.

3-guruh. Aloqa.

Sizda aloqa bilan bog'liq kasblarga moyillik yuqori. Siz telekommunikatsiya, radio, pochta, elektron uskunalarni boshqarish, xalqaro aloqa, telefon, telegraf va boshqa sohalar bo'yicha kasbiy tayyorgarlik yo'nalishidagi kasb-hunar kollejlari va fizika fanini chuqur o'rgatuvchi kurslarga qatnashib qiziqishingizni amalga oshirishingiz mumkin.

4-guruh. Qurilish.

Sizda qurilish sohasidagi kasblarga qiziqish yuqori. Sizga qurilish avtomobillari va mashinalarini boshqarish, sanitariya-texnik tizimlar, temir-beton mahsulotlari va konstruktsiyalar, duradgorlik kabi kasblar bo'yicha mutaxassis tayyorlaydigan kasb-hunar ta'limi muassasalarida o'qishni tavsiya etamiz.

5-guruh. Uy-joy, kommunal xo'jalik.

Sizda suv, gaz ta'minoti, turar joy va jamoat binolariga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq bo'lgan kasblarga qiziqish baland.

Siz uy-joy va kommunal xo'jalik sohasi uchun mutaxassislar tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlari yoki aniq fanlar yo'nalishidagi kurslarga qatnashib ta'lim olishingiz mumkin.

6-guruh. Tibbiyot.

Sizning sog`liqni saqlash sohasining umumiy amaliyot, stomatologiya, ortopediya, farmatsiya, tibbiy optika va laboratoriya tashxisi sohasidagi kasblarga qiziqishingiz yuqori. Tibbiyot yo`nalishidagi kurslarga qatnashib qo`shimcha o`qishingiz maqsadga muvofiq bo`ladi.

7-guruh. Qishloq va o`rmon xo`jaligi.

Siz qishloq ho`jaligi va o`simlikshunoslik bilan bog`liq bo`lgan kasblar yoqadi. Sizga qishloq xo`jaligi texnikalarini boshqarish. Ta`mirlash va xizmat ko`rsatish, gidromelioratsiya, fermer xo`jaligi, agronomiya, zootexnika, o`simlikshunoslik, chorvachilik sohalari o`qitiladigan yoki biologiya fani chuqur o`rgatiladigan maxsus tayyorlov joylarida tahsil olishni tavsiya etamiz.

8-guruh. Pedagogika.

Sizda bolalarni tarbiyalash, parvarish qilish va ularni qo`llab-quvvatlashga bog`liq kasblarga moyillik kuchli. Siz m aktabgacha ta`lim, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlar, boshlang`ich sinflarda sport va musiqa ta`limiga oid kasblarga tayyorlaydigan kab-hunar kollejini tanlab to`ri yo`l tutgansiz.

9-guruh. San`at va madaniyat.

Sizni tasviriy san`at, rassomchilik, xoreografiya, teatr hamda madaniya oqartuv ishlari qiziqtiradi.

Sizga madaniyat va san`at yo`nalishidagi kasblarga tayyorlaydigan maxsus kurslarga qatnashishni qo`shimcha tavsiya qilamiz.

10-guruh. Ijtimoiy-iqtisodiy soha.

Sizda moliya, buxgalteriya, menejment-marketing, bank, huquqshunoslik, yong`in xavfsizligi, avtonazorat, ijtimoiy ta`minot va bojxonaga oid kasblarga qiziqish yuqori.

Sizga ijtimoiy, iqtisodiy sohadagi kasb-hunar kollejlarda va aniq fanlar yoki ijtimoiy yo`nalishdagi kurslarga qatnashishni ta`lim olishni tavsiya etamiz.

11-guruh. Savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko`rsatish.

Sizda umumiy ovqatlanish, savdo, xizmat ko'rsatish, radiotexnika va teleapparaturalarni ta'mirlash, maishiy gaz va mashinalarni ta'mirlash, kino-fototexnika xizmatlari ko'rsatish sohalariga qiziqish yuqori.

Bunday o'quvchilar savdo, umumiy ovqatlanish va xizmat ko'rsatish bo'yicha kasblarga tayyorlovchi yo'nalishdagi kurslarda o'qish tavsiya etiladi.

Bu borada o'quvchilar kollej sharoitidan kelib chiqqan holatda har bir fan o'qituvchilari eng avvalo, o'z fanlari mazmunidagi kasblar to'g'risidagi dastlabki tushunchalar berishga intiladilar. Matematika o'qituvchilari eng avvalo, o'z kasbi matematika o'qituvchisi, informatika kasbi, iqtisodchi, moliya xodimlari, qayd etilgan tarmoqlardagi boshqa kasb va mutaxassislar to'g'risidagi axborotlar bilan matematika bilim va ko'nikmalar negizida shakllanadigan boshqa kasblarni tanlashga tavsiya etishga zamin bo'ladi. Fizika fanida o'qituvchi o'z kasbi bilan bir qatorda elektr, atom, elektron, radar, mexanika, lokator, radio va boshqa fizika bo'limlari tarmoqlari bilan uzviyligi mavjud kasblar to'g'risida ma'lumotlar negizida shu sohalarida ishlaydigan kasb va mutaxassislar tarmoqlari bilan tanishtirishga barcha ma'lumotlarni darslik, televizor, internet, audio-video vositalardan foydalanish hamda mazkur kasblar bilan akademik litsey va kasb-hunar kollejariga maqsadlashtirilgan ekskursiyalar imkoniyatlaridan unumli foydalanish maqsadga muvofiqdir. Biologiya fani o'qituvchisi o'quvchilarni o'z kasbi hamda shu kasb negizida uyg'unlashgan botanika, zoologiya, anatomiya, fiziologiya, o'simlikshunoslik va boshqa predmetlar, qishloq xo'jalik sohasining dehqonchilik, chorvachilik, o'rmonchilik, bog'dorchilik, paxtachilik, bug'doychilik, urug'chilik va shunga bog'langan boshqa o'nlab tarmoqlarda faoliyat yuritayotgan yuzlab kasb va mutaxassisliklar bilan olib boriladigan kasb tanlash ishlari turli shakl va metodlardan foydalangan holda o'quvchilarga o'z kelajagini tanlashga imkoniyatlar mavjuddir.

Shunday qilib kollej sharoitidan va imkoniyatlaridan foydalanib o'quvchilar 3 yil mobaynida 20 dan ortiq fanlarni o'zlashtirish jarayonida har biridan kamida 25 kasb va mutaxassislik faoliyatlarini o'rganib, unda: a) umumiy yondoshuv; b) integratsiyalash holatida; v) bevosita tanlagan kasbi yuzasidan bitta-ikkitasiga

tanlangan kasb bo'yicha amaliy ish, faoliyat ko'rsatgan holda mehrni uyg'otishiga imkoniyatlar yaratiladi.

SHuni ham ta'kidlash zarurki, barcha yigit-qizlar, o'quv predmetlari qatorida alohida o'z mavqeyiga ega bo'lgan qo'shimcha holatda boshqa kasblarni ham egallashi xozirgi kun talabidir. Chunki kundan –kunga rivojlanib borayotgan O'zbekistonimizda har bir inson uchun ko'p kasblarni bilish va bajarish turmush tarzimizni faravon bo'lishiga olib keladi. Xalqimizda shunday hikmatli so'zlar bor “yidit-qizga qirq hunar oz” shunday ekan yoshlarimizni birgina kasb bilan to'xtatib qo'ymasdan ko'p kasblarni ham bilishga qiziqtirib qo'yish hozirgi kun talabidir.. Bunday o'quvchilar xalq xo'jaligining turli tarmoqlariga xos kasblar yuzasidan materiallarni, asbob-uskunalar, mashina va moslamalarni nafaqat o'rganishi, ulardan foydalanish hamda ular yordamida unumli foydali maxsulotlar tayyorlashni uddalay oladigan 70-80 foizli bitiruvchilar bo'lib chiqadi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, insoniylikning eng muhim shartlaridan biri, bu ma'naviy va ma'rifiy bilim olish hamda kasb-hunar egallash bo'lib, yoshlarni komil inson qilib tarbiyalash, voyaga yetkazishda muhim omillardan hisoblanadi. Zero, hozirgi vaqtda Prezidentimiz yoshlar ta'lim – tarbiyasiga katta ahamiyat berayotganligining boisi ham shunda ko'rinadi.

Kasb-xunar kollejida – yoshlarni erkin va mustaqil kasblarni egallashlarining maqsadi yosh avlodni tanlagan kasblarini puhta egallatib, hayotda o'z o'rnilarini topishga tayyorlashdir. Buning uchun: o'quvchilarda xulq-atvor va faoliyatning ijtimoiy ahamiyatga molik ichki (ruhiy) regulyatorini shakllantirish; mehnatning har xil turlariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash; kasbiy jihatdan o'z-o'zini anglashda shaxsiy pozitsiyani faollashtirish, ya'ni o'quvchini ongli kasb tanlashga tayyorlash natijasida uning shaxsiga tarbiyalovchi, rivojlantiruvchi yondoshuvni amalga oshirish zarur.

Kasblarni egallash kompleks, ko'p jihatli muammo bo'lib, u ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik-pedagogik, tabiiy-fiziologik jihatlarni o'z ichiga oladi. Bu jihatlarning barchasiga bir vaqtda, o'zaro bog'liq holda amal qilishi kerak. Kasbga yo'naltirishning ijtimoiy jihati o'quvchilarning bilimlar, normalar, qadriyatlarining muayyan sistemasini o'zlashtirish jarayonini nazarda tutadi, ular o'quvchiga jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida ijtimoiy-kasb faoliyatini amalga oshirish imkoniyatini beradi. Shuning uchun o'quvchilarni kasbga yo'naltirishni dastavval jamiyatning ijtimoiy buyurtmasi, shuningdek mamlakat uchun bo'lajak kadrlar tayyorlashni oldindan aytib berish, o'quvchilarda shaxsiy va ijtimoiy qadriyatlarni shakllantirish birligi nuqtai nazaridan hal etish kerak. Iqtisodiy jihat – tobora ko'proq qismini yoshlar tashkil etadigan mavjud va istiqboldagi mehnat resurslaridan unumli foydalanish va ularni oqilona taqsimlashdir.

Psixologik-pedagogik jihat – o'quvchilarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyatlarini aniqlash va shakllantirish, iste'dodni izlashda, shaxsning o'ziga xos xususiyatlariga, uning potensial imkoniyatlariga mos keladigan kasbni tanlashida yordam berish; kasb-hunar kolleji o'quvchilarining kasbiy jihatdan o'z-o'zini

anglashini samarali boshqarish yo'llari va shartlarini belgilashdir. Tabiiy-fiziologik jihat kishining sog'lig'i va u yoki bu kasb faoliyatini bajarish uchun zarur bo'lgan alohida fiziologik vazifalari, psixofiziologik sifatlariga nisbatan maxsus talablar qo'yadi.

Kollej o'quvchilarini kasblarni egallashlarini boshqarish sistemasida rejalashtirish birinchi darajali ahamiyat kasb etadi. U ma'lum yoshdagi o'quvchilar tarkibiga nisbatan kasbga yo'naltirish ta'sirining izchilligini ta'minlaydi. Rejalashtirish kasbga yo'naltirishdan iborat yaxlit jarayonni o'zaro bog'langan bosqichlariga bog'liq bo'lib, o'quvchilar faoliyatining har bir yoshi uchun maqsadga muvofiq bo'lgan turlarini nazarda tutish imkonini beradi

TAVSIYALAR

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarining o'quv yurtida olgan yo'nalishlari bo'yicha bilim ko'nikmalarini nazariy va amaliy jihatdan bog'lab olib borilsa, o'quvchilarning tanlagan yo'nalishlari bo'yicha qiziqishlari yanada ortadi. O'quvchilarni esa faoliyati ma'lum pedagogik talablarga rioya qilganda samarali bo'ladi. Chunonchi:

- o'quvchilarni qiziqishini, o'zlashtirishini, unumli mehnat faoliyati bilan shugullantirish uchun o'quv yurti qoshida albatta to'g'araklarni tashkil qilish shart;
- to'garak faoliyati ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lishi lozim, ya'ni, o'quvchilar tayyorlagan buyumlar kishilar uchun amaliy qiymatga ega bo'lishi zarur;
- texnik ijodkorlik o'quv muassasasidagi o'quv-mehnat jarayoni bilan uzviy aloqada bo'lishi kerak (maktab, kollej, oliy ta'lim va boshqalar);
- ijtimoiy-foydali, unumli mehnat jarayonida o'quvchining innovatsion ijodkorligini tashkil etishda faoliyatni ijtimoiy buyurtmadan ijodkorlikka aylantirish kerak bo'ladi.
- Tarbiyaning asosiy vazifasi – shaxsning aqliy, axloqiy, erkin fikrlovchi va jismoniy rivojlanishini, uning qobiliyatlarini har tomonlama ochish uchun imkoniyat yaratishdir.

- Buning uchun:
- - yoshlarni erkin fikrlashga tayyorlash, hayot mazmunini tushunib olishga ko'maklashish, o'z-o'zini idora va nazorat qila bilishini shakllantirish, o'z shaxsiy turmushiga maqsadli yondoshuv, ularda reja va amal birligi xissini uyg'otish;
- - o'quvchilarni milliy, umuminsoniy qadriyatlar, Vatanimizning boy madaniy merosi bilan tanishtirish, madaniy hamda dunyoviy bilimlarni egallashga bo'lgan talablarini shakllantirish, malaka hosil qildirish, tobora o'stirib boyitib borish va estetik tushunchalarni shakllantirish;
- - har bir o'smirning bilimdonligini va ijodiy imkoniyatlarini aniqlab, ularni rivojlantirish. Inson faoliyatini turli soxalarda joriy qilib ko'rish. Bolalar ijodkorligi, iqtidorini yuzaga chiqarish va yanada qo'llab-quvvatlash uchun shart-sharoit hozirlash;
- - insonparvarlik odobi me'yorlarini shakllantirish, muomala odobi kabi tarbiya vositalari keng qo'llanishi lozim;
- - vatanparvarlik, dunyoviy fikrlash, jamiyatimizda yashayotgan odamlar bilan o'zaro munosabat – muloqotni o'rganish, o'z xalqiga, davlatiga, uning himoyasi uchun hamisha shay bo'lib turish, O'zbekiston Respublikasi va boshqa davlatlarning ramzlariga xurmat bilan qarash, yosh avlodni O'zbekiston Konstitutsiyasiga, Bayrog'iga, Gerbiga, Madxiyasiga, Prezidentiga sadoqatli qilib tarbiyalash;
- - qonuniy jamoa axloqi va turmush qoidalariga hurmat bilan qarashni tarbiyalash, shaxsning noyob qirralarini belgilovchi fuqarolik va ijtimoiy mas'uliyat xislarini rivojlantirish, o'zi yashayotgan mamlakatning ravnaqi, insoniyat taraqqiyotini barqaror saqlab qolish uchun fidoiylik, ekologik ta'lim tarbiya,
- - mustaqil davlatimiz – O'zbekiston Respublikasining ichki va tashqi siyosatiga to'g'ri va xolisona baho berishga o'rgatish. Uning tinchliksevar, demokratiya va boshqa davlatlarning ichki ishlariga aralashmaslik, oshkorag'ochiq tashqi siyosatiga o'z xalqining turmush darajasini oshirishga yo'naltirilgan, fuqarolarni ijtimoiy himoya qiladigan ichki siyosatini to'g'ri tushuntirmoq kerak;

- - turmushda eng oliy qadriyat hisoblangan mehnatga ijodiy yondoshish fazilatlarini shakllantirish;
- - sog'lom turmush tarziga intilishni tarbiyalash va rivojlantirish, munosib oila soxibi bo'lish istagini shakllantirish;
- - yoshlarimizni erkin mustaqil fikrlashga o'rgatish.
- Tarbiyaning asosiy tizimi quyidagicha bo'lishi lozim:
 - - tarbiya – tarbiyalanuvchi shaxsni oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir, yosh yigitg'qizning betakror va o'ziga xosligini xurmatlash, uning ijtimoiy huquqi va erkinligini e'tiborga olish;
 - - yoshlarda istak va imkoniyat muvofiqligi tuyg'usini qaror toptirish;
 - - milliylikning o'ziga xos an`analari va vositalariga tayanish;
 - - shaxslararo munosabatlarda insonparvarlik, pedagoglar va o'quvchilar o'rtasidagi bir-biriga hurmat munosabatlari, bolalar fikriga e'tibor qilish, ularga mehribonlarcha munosabatda bo'lish va boshqalar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I-Siyosiy adabiyotlar

1. Karimov I.A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. – T.: “Sharq”, nashriyot matbaa konserni, 1998.-32 bet.
2. Karimov I.A. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori.- T.: 1-tom, T.: “Sharq”, nashriyot matbaa konserni, 1997 y. 63 bet.
3. Islom Karimov, “Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch” Toshkent “Ma'naviyat” 2010 y. 176 bet.
4. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: «O'zbekiston», 1997. 326 bet.
5. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent, “O'zbekiston” 1998 y. 686 bet.
6. Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. “O'zbekiston” 1999 y. 410 bet.
7. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot – provard maqsadimiz. T.8. “O'zbekiston” 2000 y. 528 bet.
8. Karimov I.A. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepeiyasi.-T.: O'zbekiston, 2010-56 bet.
9. Karimov I.A. Mamlakatimizni modernizatsiya qilish yo'lini izchil davom – taraqqiyotimizning muhim omilidir, “Ishonch” gazetasi, 2010 yil 8 dekabr.
10. Karimov I.A. Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi, “Xalq so'zi” gazetasi, 2011 yil 22 yanvar.
11. O'zbekistonning milliy istiqlol mafkurasi. – T.: “O'zbekiston” , 1993 y. 109 bet.
12. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori «Keksalarni e'zozlash yili» davlat dasturi to'g'risida (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2015 y., 8-son, 91-modda) 23 bet
13. O'zbekiston Respublikasi Bazirlar Mahkamasining “ta'lim xizmatlari ko'rsatish bozorini shaqllantirish va qadrlar tayyorlash sohasida marketingni jadallashtirish

chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori // Ta'lim taraqqiyoti. – T., 1998. - № 1. – 88 bet.

14.Karimov I. Mehnat ta'limi O'qitish texnologiyalari. T.: 2007. 168 bet.

II-Asosiy adabiyotlar

15.Avloniy A. "Turkiy Guliston yoxud axloq". T. «O'qituvchi» 1992.134 bet.

16.Asqarova O'. Nishanov M. "Pedagogika" 2008. T.: 187 bet.

17.Boldirev N.L. "Sinf raxbari". T. «O'qituvchi» 1975. 172 bet.

18.Hasanov S Mutafakkirlar mehnat tarbiyasi haqida. T.: «O'qituvchi» 1998.186 bet.

19.Ibragimov B. Yoshlar tarbiyasining dolzarb masalalari. T.: 2009.98 bet.

20.Jo'rabekov L. "Yangi O'zbekiston-yangi qadamlar" T. «O'zbekiston» .1994.142 bet.

21.Jo'raev A.J. "Tarbiyaviy darslarni o'tish". T.: «O'qituvchi» 1994.125 bet,

22.Jo'raeva O. "Odobnoma" T.: «O'qituvchi» 1995. 76 bet.

23.Mardonov Sh.Q. Xodjayev B. Va boshqalar Pedagogik aksiologiya. O'q.uv qo'llanma– T.: 2013. – 170 bet.

24.Mahmudov T. Mustaqillik va ma'naviyat. Toshkent, 2000. 206 bet.

25.Manaviyatimizning hayot baxsh qudrati. Toshkent, 1999 y. 108 bet.

26.Mavlonova R, Jo'raev O, Xoliqberdiev K. "Pedagogika". T.: «O'qituvchi» 2002. 274 bet.

27.Mavlonova R, Normurodova B, Raxmonqulova R. "Tarbiyaviy ishlar metodikasi". T.: "Fan" 2007. 217 bet.

28.Musurmonova O. Milliy urf-odat, marosim va an'analarning shaxs ma'naviy kamolotidagi o'rni. Toshkent, 1999 . 80 bet.

29.Musurmonova O. O'quvchilarning ma'naviy- madaniyatini shakllantirish. Toshkent: Fan 1993. 204 bet.

30.Musurmonova O. Ma'naviy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi. T.: "O'qituvchi" 1996. 154 bet.

31.Munavvarov A.K. "Oila pedagogikasi" T.: «O'qituvchi» 1994 y. 165 bet.

32.Mo'minova G., Jo'rayev A. Sinf rahbari – sinf tarbiyaviy soatlari tashkilotchisi

Toshkent: “O’qituvchi”, T.: 2012 y. 218 bet.

33. Mo’ydinov R. Xushnazarova M. Ma’naviy meros va yoshlar tarbiyasi fan: 2006.86 bet.

34. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. – T.: «Istiqlol» nashriyoti, 2003. – 138-bet.

35. Nosirho’jayev S.N va boshqalar. Ma’naviyat asoslari. Toshkent 2005.245 bet.

36. Qo’ziev J. “Sinf rahbari ishini tashkil etish va rejalashtirish”. T.: 1997.179 bet.

37. O’quv qo’llanma “Tarbiyaviy ish metodikasi” T.: «O’qituvchi” 1998.109 bet.

38. Yo’ldoshev J. “O’qituvchi ma’naviyatini shakllantirish” T.: “Sharq” 2000.179 bet,

39. Yo’ldoshev J, Hasanov S. “Avesto”da axloqiy-ta’limiy qarashlar. – T.: “O’qituvchi” nashriyoti, 1992. – 118-bet.

40. Ziyayev X. Istiqlol ma’naviyat negizi. Toshkent, 1999 y. 167 bet.

41. Ziyamuhammedov B. Ma’naviyat asoslari. Toshkent, 2000. 204 bet.

III-Qo’shimcha adabiyotlar

42. www.pedagog.uz

43. www.doda.uz

44. www.gov.uz

45. www.NamSu.uz